


NOZIMA GULOMOVA

CHIZMA CHILIKDAN TESTLAR



ANNOTATSIYA

Chizmachilik fani bo'yicha tuzilgan ushbu testlar barcha oily va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari talabalari, umumta'lim maktablari o'quvchi hamda o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Unda chizmachilik kursining barcha mavzulari, boblari va bo'limlari bo'yicha alohida-alohida testlar uch xil murakkablik darajasida tuzilgan bo'lib, ulardan foydalanib har bir o'qituvchi o'zini qiziqtirgan mavzular, boblar yoki bo'limlar bo'yicha kerakli hajmdagi testlar to'plamini tayyorlab olish imkoniyatiga ega.

Qo'llanmada 5 ta (A, B, S, D, E) 50 tadan savolga ega bo'lgan test na'munalari ham tuzib berilgan. Ulardan turli nazorat ishlarini o'tkazishda foydalanish mumkin.

Mas'ul muharrirlar: A. Abdurahmonov, dotsent
B.V. Nig'monov, TDPU katta o'qituvchisi

Muallif: Nozima Gulomova

Taqrizchilar:

Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU o'quv-uslubiy kengashining 2014 yil ----- - raqami qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

SO‘Z BOSHI

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi vaqtda insonlar tomonidan o‘zlashtirilayotgan har qanday bilimlarni tekshirish va baholashda eng takomillashgan zamonaviy usul-testlardan foydalanish hisoblanadi.

Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlarda shaxsning bilim darajasini aniqlashda, uni o‘qishga, ishga qabul qilishda, inson organizmida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va turli tashxis (diagnoz) lar qo‘yishda testlardan unumli foydalanilmoqda.

Testlar yordamida shaxsning fikrlash qobiliyati, zukkoligi, topqirligi, turli vaziyatlardan chiqabilishi, fazoviy tasavvur qila olishligi, ishbilarmonligi va boshqa turli qobiliyatlarini aniqlash mumkin.

Testlar har bir sohaning o‘ziga hos tomonlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Umum ta’lim maktablari, litsey, kollej, oliy o‘quv yurtlari o‘quvchi va talabalari uchun testlar har bir fanning hususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi. Har qanday testlardagi savollar ko‘lami fanning o‘zlashtirilishi imkoniyatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Har bir savol uchun bitta mavzuga, ba’zi hollarda esa turli mavzularga aloqador to‘rttagacha bir-biriga yaqin va o‘xshash javoblar kiritiladi. Ularning ichidan eng to‘g‘risini aniqlash orqali test talabi qondiriladi.

Muallif.

KIRISH

Chizmachilik fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Chizmachilik-oliy ma'lumotli, qator sohalar bo'yicha umummuxandislik tayyorgarligiga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlaydigan, texnik buyumlar asosida yotadigan geometrik jismlarning grafik modellari (chizmalari) ni tuzish va o'qishni orgatadigan fandır.

Chizmachilik fanining maqsadi-chizmalar yordamida o'z texnik fikrlarini bayon qilish, tasvirlangan buyumning chizmasi orqali, uning konstruksiyasi va ishlash jarayoni (prinsipi) ni tushina olish ko'nikma va malakalarini berishdan iboratdir.

Chizmachilik fanining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) nuqtalar, chiziqlar, tekisliklar va turli geometrik sirtlarning tasvirlarini qurishning nazariy asoslarini o'rgatish;
- 2) geometrik jismlarning o'zaro munosabatlari (joylashishi, kesishishi) ga tegishli masalalar yechish va ularni amaliyotga tadbqiq etish, ya'ni planimetrik tasvirdan stereometrik tasavvurga o'tish yo'llarini o'rgatish;
- 3) buyumlarning tasvirlarini ortogonal va aksonometrik proyeksiyalarda tuzish usullarini hamda KXYAT (konstruktorlik xujjatlarining yagona tizimi) standartlari bo'yicha ularga tegishli bo'lgan shartliliklarni o'rgatish;
- 4) detallarning tasvirlariga asosan, ularning sirtlarini tahlil qilish, detal tasvirlarini, uning aslidan yoki yig'ish chizmasidan ajratib bajara olishni o'rgatish;
- 5) turli (ajraladigan, ajralmaydigan) birikmalarning va uzatmalarning tasvirlari bilan tanishtirish hamda ularning chizmalarini chizishni o'rgatish;
- 6) yig'ma birliklarning chizmalarini o'qish va KXYAT standartlari asosida, ularning chizmalarini chizish bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iboratdir.

Chizmachilik fani o'ziga xos fan bo'lib, u quyidagi 5 ta bo'limdan iborat:

1) **geometrik chizmachilik.** Bu bo'limda chizmachilik fanining qisqacha tarixi, chizma standartlari, chizma qurollari va ashyolari, format

(bichimlar) lar va asosiy yozuvlar, masshtablar, chiziqli turlari, o'lcham qo'yishlar, chizma shriftlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga geometrik yasashlar, ya'ni turli vazsiyatda joylashgan to'g'ri chiziqlar chizish, to'g'ri chiziqli kesmalarini, aylanalarni va burchaklarni teng bo'laklarga bo'lish, ko'pburchaklar yasash, tutashmalar bajarish, sirkul va lekalo egri chiziqlarini chizish o'rgatiladi. Bu ko'nikmalar chizmalar chizish va ularni o'qishda muhim ahamiyat kasb etadi;

2) **proyeksion chizmachilik.** Proyeksion chizmachilik bo'limi chizmachilik fanining asosiy va tayanch bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu bo'limda proyeksiyalash usullari, choraklar, oktantlar va epyur xaqida tushunchalar berilib, nuqta, to'g'ri chiziqli, tekis shakllar va geometrik jismlarning tekislik (bitta, o'zaro perpendikulyar bo'lgan ikkita va o'zaro perpendikulyar bo'lgan uchta tekislik) ka proyeksiyalash orqali, ularning ko'rinishlarini chizish bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Bundan tashqari yaqqol tasvirlar, ya'ni turli aksonometrik proyeksiyalarni yasash usullari, ortogonal hamda aksonometrik proyeksilarda qirqimlar va kesimlar, yoyilmalar bajarish, o'lchamlar qo'yish bo'yicha muhim bilimlar beriladi;

3) **mashinasozlik chizmachiligi.** Bu bo'lim buyumlar va ularning turlari, konstruktorlik xujjatlari va ularning turlari, ajraluvchi va ajralmas birikmalar, uzatmalar, yig'ish chizmalarini tuzish va o'qish hamda sxemalarga bag'ishlangan boblarni o'z ichiga oladi. Mashinasozlik chizmalarini chizish va o'qish buyumlar ishlab chiqarishni, ularni ekspluatatsiya qilish hamda ta'mirlashning asosi hisoblanadi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadigan har bir mutaxassis, hoh u muxandis yoki ishchi bo'lsin bu bo'limni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi kerak;

4) **qurilish chizmachiligi.** Bu bo'limda turli qurilish ob'ektlari va ularning qismlarining loyihalarini tuzish hamda ish chizmalarini chizish yo'llari o'rgatiladi. Qurilish chizmachiligida asosiy e'tibor fuqaro hamda sanoat binolariga qaratiladi. Fuqaro binolariga turar joy binolari, maishiy xizmat ko'rsatish binolari, kasalxonalar, klublar, ma'muriy va o'quv binolari, savdo-sotq binolari va x. k. lar kiradi. Sanoat binolariga ishlab chiqarish (fabrika va zavodlar) binolari, garajlar, elektrostansiya va x. k. lar kiradi;

5) **topografik chizmachilik.** Topografik chizmalar chizish son bilan belgilangan proyeksiyalarga asoslanadi. Topografik chizmalar bitta gorizontall tekislik (H) da bajariladi. Bunday chizmalar orqali har xil yer sirti (tekislik, tepalik, chuqurlik, yonbag'irlik, jarlik) da turli qurilishlarni amalga oshirishda tuproq qazish va tuproq to'kish ishlarining chegaralari hamda hajmlari aniqlanadi.

Mazkur qo'llanmada yuqorida qayd qilingan chizmachilik fanining asosiy va tayanch mavzulari bo'yicha testlar tuzildi. Testlar savollari uchta murakkablikka ajratildi. Murakkablik darajalari testlar savollarining tartib raqamlariga daraja qo'yish bilan aniqlanadi. Masalan, geometrik chizmachilik bo'limidagi 5-test savoli 3-murakkablikda, ya'ni 5^3 , 6-test savoli 1-murakkablikda, ya'ni 6^1 , 7-savoli 2-murakkablikda, ya'ni 7^2 . Testlarning murakkablik darajasi bo'yicha taqsimlanishi o'qituvchilar uchun test tanlashda juda ham qo'l keladi, ya'ni ularda baholashni differensiyallash imkoni bo'ladi.

Taklif qilinayotgan testlardan o'qituvchilar o'quvchi va talabalarning bilimlarini mavzu, bob yoki bo'limlar bo'yicha joriy, oraliq hamda yakuniy baholashda, musobaqalar va olimpiadalar o'tkazishda muvaffaqiyatli foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari testlar, o'z navbatida, o'quvchi va talabalarning mustaqil shug'ullanib bilimlarini oshirishlari hamda mustahkamlashlarida, o'z-o'zlarini baholab borishlarida yaxshi samara beradi.


TEST TUZISH

Test savollarini turli koʻrinishlarda tuzish tavsiya etiladi.


1. Grafik tasvirlar orqali:

a) bitta grafik tasvir berilib, unga toʻrttagacha bir-biriga yaqin javoblar koʻrsatiladi. Masalan, qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Piramida
- C. Silindr
- D. Prizma



b) toʻrttagacha grafik tasvir berilib, bitta savol qoʻyiladi. Masalan, geometrik jismlar ichidan konusni aniqlang.



2. Grafik tasvirlarsiz yozma taʼrif orqali.

Masalan, AB toʻgʻri chiziq kesmasi H ga perpendikulyar boʻlsa, uning frontal proeksiyasi V ga qanday koʻrinishda tasvirlanadi?

- A. Ox ga parallel ($A''B'' \parallel Ox$)
- B. Oy ga parallel ($A''B'' \parallel Oy$)
- C. Oz ga parallel ($A''B'' \parallel Oz$)
- D. Oy ga perpendikulyar ($A''B'' \perp Oy$)

3. Har bir test savolini tuzishda mavzu matni tanlab olinadi. Masalan, “Narsani kesuvchi tekislik H ga parallel boʻlsa, hosil boʻlgan qirqim gorizontal qirqim deyiladi”, matnli test savolida: “Narsani kesuvchi tekislik H ga parallel boʻlsa, u holda qanday qirqim hosil boʻladi?” koʻrinishda yoziladi va qirqimga bagʻishlangan toʻrttagacha javob quyidagicha kiritiladi:

- A. Frontal qirqim
- B. Gorizontal qirqim
- C. Profil qirqim
- D. Pogʻonali qirqim

Testlarni har uchchala usulda alohida-alohida yoki ularni aralashtirib ham tuzish mumkin.

Qo‘llanmaning oxirida turli usullarda 50 ta savollik toliq testlarga namunalari keltirilgan.

“**Test tuzish**” bo‘yicha testlar javoblari: 1. a)-C; b)-B; 2-C; 3-B.

MAVZULAR BO‘YICHA TESTLAR

Quyida kirish va har bir mavzu bo‘yicha testlar tuzish na‘munalari beriladi.

1. KIRISH

1¹. Narsaning aniq shakli va o‘lchamlarini to‘liq ko‘rsata oladigan tekislikdagi tasvir nima deyiladi?

- A. Rasm
- B. Chizma
- C. Texnik rasm
- D. Perspektiva

2³. Abu Rayxon Beruniy shar ichida besh xil muntazam ko‘pburchakliklar yasash mumkinligini chizmalar orqali isbotlab bergan. Ular qaysi bandda ko‘rsatilgan?

- A. Kub, konus, silindr, piramida, sfera
- B. Tetraedr, geksaedr, oktaedr, dodekaedr, ikosaedr
- C. Silindr, tetraedr, kub, oktaedr, piramida
- D. Dodekaedr, ikosaedr, silindr, konus, piramida

3³. Abu Ali ibn Sino mexanik asboblarning besh xilini chizmalar yordamida tasvirlagan edi. Ular qaysi bandda berilgan?

- A. O‘q, vint, val, shkiv, shponka
- B. Bolt, shpilka, mufta, qistirma, shayba
- C. Vint, vtulka, shpindel, qistirma, klapan
- D. O‘q, richag, chig‘ir, vint, pona

4³. O‘rta asrlarda me‘morlar turli obidalarni chizishdagi chizg‘ich, sirkul, reysfeder, lekalolarni qanday nomlar bilan atashgan?

- A. Chizg‘ich, reysfeder, sirkul, lekalo
- B. Jazvar, pargor, juptak, mastura
- C. Tarz, tarh, reja, suvu
- D. Reja, chizg‘ich, pargor, sirkul

- 5². Musavvir K. Behzod o‘z asarlarini qanday yaqqol tasvirga yaqin usulda bajargan?
- A. Perspektiva
 - B. Dimetriya
 - C. Frohtal dimetriya
 - D. Frontal izometriya
- 6¹. G. Monj chizmalarga oid barcha bilimlarni umumlashtirib, qanday kitobda chizmalar hosil qilishning nazariy asoslarini yoritgan?
- A. Geometriya
 - B. Perspektiva
 - C. Chizma geometriya
 - D. Aksonometriya
- 7¹. Ghizma xo‘jaligining barcha sohasini to‘g‘ri tashkil qilish haqidagi fan nima deyiladi?
- A. Geometriya
 - B. Chizma geometriya
 - C. Chizmachilik
 - D. Perspektiva
- 8¹. Chizmachilikning barcha turlarini asosi hisoblangan qanday chizmachilik mavjud?
- A. Topografik
 - B. Muhandislik
 - C. Mashinasozlik
 - D. Geometrik
- 9¹. Narsalarni tekislikda tasvirlash usullari qanday chizmachilik orqali o‘rganiladi?
- A. Mashinasozlik
 - B. Geometrik
 - C. Perspektiv
 - D. Proyeksion
- 10¹. Turli texnik buyumlarni yasash uchun mo‘ljallangan chizmalarni bajarish qaysi chizmachilik orqali o‘rganiladi?
- A. Topografik
 - B. Geometrik

C. Mashinasozlik

D. Qurilish

11¹. Yer sathini tasvirlash chizmalari qanday chizmalar deyiladi?

A. Topografik

B. Geometrik

C. Mashinasozlik

D. Qurilish

12². Buyumlarning o'lcham, shakl, og'irlik va boshqa sifatlarini ko'rsatadigan texnik hujjat nima deyiladi?

A. Standart

B. Spetsifikatsiya

C. Eskiz

D. Ish chizma

13³. O'zbekiston Respublikasining «Konstruktorlik hujjatlari yagona tizimi (O'z KHYT) ASOSIY QOIDALARI» qachon qabul qilingan?

A. 2.03.1992

B. 10.10.1995

C. 12.09.1999

D. 17.11.2003

14². Standart nima?

A. Meyor deb qabul qilingan o'ziga o'xshash namuna, etalon, model

B. Ko'rinishlarning joylashishini belgilaydi

C. Qirqim va kesim turlarini aniqlaydi

D. Eskiz chizish bosqichlarini ko'rsatadi

15³. O'z DSt 2.001:2003 qanday o'qiladi?

A. 1. O'z DSt - standartning belgisi (indeksi)

2.2 - standartning klassi

3.0 - standart guruhining klassifikatsion shifri

4.01 - guruhdagi standartning tartib raqami

5.2003 - standartni ro'yxatga olingan yil

B. 1. -standart guruhining klassifikatsion shifri.

2.-guruhdagi standartning tartib raqami

3.-standartni ro'yxatga olingan yil

4.-standartning belgisi (indeksi)

5.-standartning klassi

C. 1. -guruhdagi standartning tartib raqami

2.-standartning belgisi (indeksi)

3.-standart guruhining klassifikatsion shifri

4.-standartning klassi

5.-standartni ro'yxatga olingan yil

D. 1. - standartning belgisi (indeksi)

1. - standart guruhining klassifikatsion shifri.

2. - standartning klassi

3.-guruhdagi standartning tartib raqami

4. - standartni ro'yxatga olingan yil

16². Chizmalar chizishda ko'z bilan chizma qog'ozi orasidagi masofa taxminan qancha mm. bo'lishi tavsiya etiladi?

A. 350-400

B. 300-350

C. 250-300

D. 200-250

17². Chizma chizishda ko'krak bilan stol (parta) oralig'idagi masofa kamida qancha mm bo'lishi tavsiya etiladi?

A. 40-45

B. 45-70

C. 30-50

D. 40-60

18¹. Chizmalar chizishda yorug'ik chizma ustiga qaysi tomondan tushishi qabul qilingan?

A. Yuqori va o'ng tomondan

B. Yuqori va past tomondan

C. Yuqori va chap tomondan

D. Yuqori va orqa tomondan

19². Chizma nima?

A. Shakl

B. Fotografiya

C. Grafik til

D. Tasvir

20². Mashinasozlik chizmalarida chiziqli o'lchamlar qanday birlikda ifodalanadi?

- A. Dyuymlarda
- B. Metrlarda
- C. Santimetrlarda
- D. Millimetrlarda

“**1. KIRISH**” bo'yicha testlar javoblari : 1-B; 2-B; 3-D; 4-D; 5-D; 5-D; 6-C; 7-C; 8-D; 9-D; 10-C; 11-A; 12-A; 13-D; 14-A; 15-A; 16- B; 17-C; 18-C; 19-C; 20-D.

2. CHIZMALARNI CHIZISH VA ULARNI TAXT QILISH

1². Chizmachilik asboblariga nimalar kiradi?

- A. Gotovalnya, stol, qalam va boshqalar
- B. Chizg'ichlar, lekalolar, gotovalnya va shunga o'xshashlar
- C. O'chirg'ich, qadaq (knopka), qalamlar va boshqalar
- D. Chizma taxta, chizma qog'oz, tush va boshqalar

2². Chizma jihozlariga nimalar kiradi?

- A. Chizma stoli, chizma taxtasi va shu kabilar
- B. Gotovalnya, uchburchakliklar va boshqalar
- C. Reysshina, chizma qog'ozi va boshqalar
- D. Chizma stoli, gotovalnya va boshqalar

3². Chizma ashyolariga nimalar kiradi?

- A. Gotovalnya, chizg'ich, o'chirg'ich va boshqalar
- B. Chizma stoli, uchburchakliklar va boshqalar
- C. Chizma qog'ozi, qalamlar, qadagichlar va shunga o'xshashlar
- D. Transportir, reysshina, tush kabilar

4¹. Qalamdagi T yoki H yozuv, uning nimasini bildiradi?

- A. Yumshoqligini
- B. Juda yumshoqligini
- C. O'rtacha yumshoqligini
- D. Qattiqligini

5¹. Qalamdagi M yoki B belgi, uning qandayligini ko'rsatadi?

- A. Yumshoqligini
- B. Juda yumshoqligini
- C. O'rtacha yumshoqligini

D. Qattiqligini

6¹. Qalamdagi TM yoki HB belgi, uning qandayligini ko'rsatadi?

A. Yumshoqligini

B. Juda yumshoqligini

C. O'rtacha yumshoqligini

D. Qattiqligini

7¹. Ingichka chiziqlarda chizilgan chizmalar ustidan qanday qalamda yurgizib chiqish tavsiya etiladi?

A. T (H) da,

B. TM (HB) da,

C. M (B) da,

D. 2M (2B) da,

8¹. Qalamning ochilgan yogoch qismining uzunligi x va chiqarilgan grafitning uzunligi y , qancha mm. da bo'lishi lozim?

A. $x = 25-30$, $y = 8-10$

B. $x = 30-40$, $y = 10-12$

C. $x = 35-40$, $y = 12-15$

D. $x = 40-45$, $y = 14-20$

9². Chizmachilik taxtasida chizmani aniq va tez chizishga imkon beradigan chizg'ich nima deb ataladi?

A. Uchburchaklik

B. Reysshina

C. Lekalo

D. To'g'ri chizg'ich

10¹. A4 bichim (format) o'lchamlari qancha mm. larga teng?

A. 594x841

B. 420x594

C. 210x297

D. 297x420

11². AO bichim (format) ning yuzasi qancha m^2 ga teng?

A. $2 m^2$ ga

B. $1,8 m^2$ ga

C. $1,5 m^2$ ga

D. $1 m^2$ ga

- 12¹. Chizma xoshiyasi (ramka) qanday yo‘g‘onlikdagi chiziqda chiziladi?
- A. Ingichka tutash
 - B. Asosiy yo‘g‘on tutash
 - C. Shtrix
 - D. Ingichka shtrix-punktir
- 13¹. Asosiy yozuv chizmaning qaysi joyiga chiziladi?
- A. Chizma xoshiyasining pastki o‘ng burchagiga
 - B. Chizma xoshiyasining pastki chap burchagiga
 - C. Chizma xoshiyasining yuqori o‘ng burchagiga
 - D. Chizma xoshiyasining yuqori chap burchagiga
- 14². Asosiy yozuv gabariti qanday o‘lchamlarda chiziladi?
- A. 22x160
 - B. 22x145
 - C. 20x144
 - D. 24x146
- 15¹. Qanday masshtab berilgan M1:1 ?
- A. Kattalashtirish
 - B. Natural (asli)
 - C. Kichraytirish
 - D. Nisbat
- 16¹. M2:1.Bu qanday masshtab?
- A. Kichraytirish
 - B. Natural (asli)
 - C. Kattalashtirish
 - D. Nisbat
- 17¹. M 1:2.Qanday masshtab yozilgan?
- A. Kichraytirish
 - B. Natural (asli)
 - C. Kattalashtirish.
 - D. Nisbat
- 18¹. Qanday chiziq tasvirlangan? _____
- A. Asosiy yo‘g‘on tutash
 - B. Ingichka tutash
 - C. Shtrix

D. Ingichka shtrix-punktir

19¹. Qanday chiziq berilgan?



A. Asosiy yo'g'on tutash

B. Ingichka tutash

C. Ingichka shtrix-punktir

D. Shtrix

20¹. Qanday chiziq chizilgan?



A. Asosiy yo'g'on tutash

B. Ingichka tutash

C. Shtrix

D. Ingichka shtrix-punktir

21. Qanday chiziq berilgan?



A. Asosiy tutash yo'g'on

B. Ingichka tutash

C. Shtrix

D. Shtrix-punktir ingichka

22¹. Qanday chiziq ko'rsatilgan?



A. Asosiy tutash chiziq

B. Ingichka tutash

C. Shtrix

D. Ingichka tolqinsimon tutash

23². Chizma chizishda shtrix chiziqlardan qanday holatlarda qo'llaniladi?

A. Markaziy va o'q chiziqlarni chizishda

B. Kesim yuzalarni shtrixlashda

C. Detalning ko'rinmas konturini tasvirlashda

D. Detalga o'lchamlar qo'yishda

24³. Detalning eng katta (balandlik, uzunlik, eni) o'lchamlarini ko'rsatuvchi o'lchamlar nima deyiladi?

A. Diametr

B. Kvadrat

C. Gabarit

D. Radius

25¹. Ø20. Detalning qanday teshigiga qo'yiladigan o'lcham berilgan?

A. Kvadratli

- B. Silindrli
- C. To'rtburchakli
- D. Radiusli

26¹. Detalning qanday elementiga qo'yiladigan o'lcham ko'rsatilgan? □20

- A. Kvadratli teshik yoki chiqiq
- B. Silindrli teshik yoki chiqiq
- C. To'rtburchakli teshik yoki chiqiq
- D. Radiusli teshik yoki chiqiq

27¹. Detalning qanday joyiga qo'yiladigan o'lcham yozilgan? R20

- A. Kvadratli teshik yoki chiqiq
- B. Silindrli teshik yoki chiqiq
- C. To'g'ri to'rtburchakli teshik yoki chiqiq
- D. Radiusli teshik yoki chiqiq

28³. Chizmalarda o'zaro parallel o'lcham chiziqlari orasidagi hamda o'lcham chizig'i bilan detal konturi orasidagi masofalar necha mm. bo'lishi mumkin?

- A. 8...12
- B. 10...12
- C. 6...10
- D. 6...12

29². Chiqarish chiziqlari o'lcham chiziqlaridan, markaz va o'q chiziqlari detalning konturidan qancha chiqib turishi mumkin?

- A. 1...2 mm
- B. 1...5 mm
- C. 2...6mm
- D. 2...8 mm

30². Harflar chiziqlarining yo'g'onligi, uning balandligi d ga qanday nisbatda yoziladi?

- A. 1/6
- B. 1/8
- C. 1/10
- D. 2/5

31². Harflar orasidagi masofa qancha d qilib olinadi?

- A. 1d

- B. 1,5d
- C. 2,5d
- D. 2d

32³. Ko‘pchilik bosh harflarning eni, uning balandligi h ning qanday qismiga to‘g‘ri keladi?

- A. $6/10h$
- B. $3/10h$
- C. $4/10h$
- D. $5/10h$

33³. Ko‘pchilik yozma harflarning balandligi c bosh harflar balandligi h ga nisbatan qanday olinadi?

- A. $7/10h$
- B. $6/10h$
- C. $5/10h$
- D. $4/10h$

34³. So‘zlar orasidagi masofa e harf balandligi h ga nisbatan qancha olinishi mumkin?

- A. $5/10h$
- B. $6/10h$
- C. $7/10h$
- D. $4/10h$

35². Yozuvdagi qatorlar orasidagi masofa harf balandligi h ga nisbatan qancha olinishi mumkin?

- A. lh
- B. $1,2h$
- C. $1,5h$
- D. $2h$


36². Kataklangan daftarda shriftlarni yozishda 75° burchakli chiziq o‘tkazish uchun balandligi h va eni t bo‘lgan qancha katak olinadi?

- B. $h = 3, t = 1$
- C. $h = 4, t = 1$
- D. $h = 5, t = 1$
- E. $h = 6, t = 1$

- 37³. $h=10$ o'lchamli shriftning ko'pchilik yozma harflarining balandligi c d ga nisbatan qanday kattalikda yoziladi?
- $c=3,5d$
 - $c=5d$
 - $c=7d$
 - $c=10d$
- 38³. Chiziqli burchak o'lchaydigan asbob qanday nomlanadi?
- Lekalo
 - Trafaret
 - Uchburchaklik
 - Transportir
- 39³. Detal yoyilmasida buklanadigan joylar qanday chiziqda tasvirlanadi?
- Asosiy tutash yo'g'on
 - Shtrix
 - Ikki nuqtali ingichka shtrix-punktir
 - Ingichka shtrix-punktir
- 40². Asosiy yozuv qanday chiziqda chiziladi?
- Asosiy tutash yo'g'on
 - Shtrix
 - Ingichka shtrix-punktir
 - Ingichka tutash
- 41³. Qanday sharoitda mashtab belgisi «M» harfi qo'yilmaydi?
- Chizma ustiga yozilganda
 - Chizma ostiga yozilganda
 - Mahalliy ko'rinishga
 - Asosiy yozuvning maxsus grafasiga

42³. Qanday mashtab tasvirlangan?

- Chiziqli
- Burchakli (proportsional)
- Kichiklashtirish
- Kattalashtirish



"2. Chizmalarni chizish va ularni taxt qilish" bo'yicha testlar javoblari:

- 1-B; 2-A; 3-C; 4-D; 5-A; 6-C; 7-C; 8-A; 9-B; 10-C; 11-D; 12-B; 13-A; 14-B; 15-B; 16-C; 17-A; 18-A; 19-D; 20-B; 21-D; 22-D; 23-C; 24-

C; 25-B; 26-A; 27-D; 28-C; 29-B; 30-C; 31-D; 32-A; 33-A; 34-B; 35-C; 36-B; 37-C; 38-D; 39-C; 40-A; 41-D; 42-B.

3. GEOMETRIK CHIZMACHILIK


- 1¹. Fazodagi bitta to'g'ri chiziqda yotmagan nechta nuqtadan bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?
 - A. Bitta
 - B. Ikkita
 - C. Uchta
 - D. To'rtta
- 2². AB kesmadagi C nuqtaning geometrik o'rni $\frac{2}{3}$. Uni aniqlash uchun kesma nechta teng bo'lakka bo'linadi?
 - A. 2
 - B. 3
 - C. 4
 - D. 5
- 3³. To'g'ri chiziqda yotmagan T nuqtadan, unga nisbatan qanday to'g'ri chiziq o'tkazilsa, ularning orasidagi masofalar o'zaro teng boladi?
 - A. Perpendikulyar
 - B. Ayqash
 - C. Kesishuvchi
 - D. Parallel
- 4³. To'g'ri chiziqda yotmagan T nuqta orqali, unga nisbatan qanday to'g'ri chiziq o'tkazilsa, ular o'zaro 90° burchak hosil qiladi?
 - A. Perpendikulyar
 - B. Ayqash
 - C. Kesishuvchi
 - D. Parallel
- 5³. To'g'ri chiziqda yotmagan T nuqta orqali unga nisbatan qanday to'g'ri chiziq o'tkazilsa, ular o'zaro chalmashuvchi bo'ladi?
 - A. Perpendikulyar
 - B. Ayqash
 - C. Kesishuvchi
 - D. Parallel

- 6¹. 90° li burchakni teng ikkiga bo'lish uchun burchakning qanday chizig'i o'tkaziladi?
- Radiusi
 - Medianasi
 - Kateti
 - Bisektrissasi
- 7². 90° burchakning A uchidan sirkulda ixtiyoriy kattalikda yoy chizib, hosil qilingan $AB=AC$ kesma nuqtalari B va C lardan AB (AC) radiusda BC yoy kesilsa, to'g'ri burchak qancha qismga bo'linadi?
- Ikkita
 - Uchta
 - To'rtta
 - Beshta
- 8¹. Aylana ichiga chizilgan to'g'ri burchakli uchburchak ABC ning BC gipotenuzasi aylananing qanday elementi bilan qo'shib qoladi?
- Paralleli
 - Xordasi
 - Diametri
 - Kateti
- 9². Aylana diametri bilan kesishgan A va B nuqtalar hisobga olingan holda, ushbu A, B nuqtalardan aylana radiusiga teng yoylar bilan kesilsa, aylana nechta bolakka bolinadi?
- To'rtta
 - Beshta
 - Oltita
 - Yettita
- 10¹. Aylana bilan uning ikkita o'zaro perpendikulyar diametrlari kesishgan nuqtalari ketma-ket tutashtirilsa, qanday muntazam ko'pburchak hosil bo'ladi?
- Parallelogram
 - Uchburchak
 - Beshburchak
 - Kvadrat
- 11¹. Aylananing bitta diametri, uni nechta qismga ajratadi?

- A. Ikkit
- B. Uchta
- C. To'rtta
- D. Beshta


12³. To'g'ri burchakli ABC uchburchakning qiyaligi q (AC) qanday belgilanadi?

- A. $q=a:b$
- B. $q=a:c$
- C. $q=a:b:c$
- D. $q=b:c$



13³. To'g'ri doiraviy konusning konusligi k qanday aniqlanadi?

- A. $k=h:D$
- B. $k=D:h$
- C. $k=S:h$
- D. $k=S:D$



14¹. Aylanaga urinib o'tuvchi to'g'ri chiziq, shu urinish nuqtasi orqali o'tgan aylana radiusi bilan qanday vaziyatda bo'ladi?

- A. Parallel
- B. Qiya
- C. Ayqash
- D. Perpendikulyar

15¹. To'g'ri chiziq aylana yoyining bitta nuqtasi orqali, unga nisbatan silliq o'tsa, bu nuqta nima deyiladi?

- A. Kesishuvchi
- B. Markaz
- C. Urinma
- D. Radius

16². Aylana yoyi bilan to'g'ri chiziqning o'zaro silliq birlashish nuqtasi nima deyiladi?

- A. Kesishish
- B. O'tish
- C. Markaz
- D. Radius

- 17². Ikkita aylana yoylari bilan uchinchi aylana yoyining o'zaro silliq o'tish joy nuqtalari nima deyiladi?
- A. Kesishuv
 - B. Markaz
 - C. Tutashish
 - D. Radius
- 18¹. Ikkita aylanani tutashtiruvchi uchinchi aylana markazi qanday nomlanadi?
- A. Tutshtirish radiusi
 - B. O'tish nuqtasi
 - C. Diametr
 - D. Tutashtirish markazi
- 19¹. Ikkita aylana yoylariga urinib o'tuvchi uchinchi aylana radiusi nima deyiladi?
- A. Tutashtirish radiusi
 - B. O'tish radiusi
 - C. Diametr
 - D. Tutashtirish markazi
- 20². R_1 va R_2 radiusli aylanalrni R radiusli aylana bilan tashqi tutashtirish aniqlansin.
- A. $R_1 + R_2$, $R_1 + R$
 - B. $R + R$, $R + R_2$
 - C. $R + R_1$, $R - R_2$
 - D. $R - R_1$, $R - R_2$
- 21². R_1 va R_2 radiusli aylanalarni R radiusli aylana bilan ichki tutashtirish aniqlansin
- A. $R + R_2$, $R + R$
 - B. $R + R_1$, $R + R_2$
 - C. $R + R_1$, $R - R_2$
 - D. $R - R$, $R - R_2$
- 22². R_1 va R_2 radiusli aylanalarni R radiusli aylana bilan aralash tutashtirish aniqlansin.
- A. $R_1 + R_2$, $R_1 + R$
 - B. $R + R_1$, $R + R_2$

C. $R+R_1$, $R-R_2$

D. $R-R_1$, $R-R_2$

23¹. Egri chiziqning hamma nuqtalari bitta tekislikka tegishli bo'lsa, u qanday chiziq deyiladi?

A. Fazoviy

B. Sfera

C. Tekis

D. Ellipsoid

24¹. Egri chiziqning hamma nuqtalari bitta tekislikka tegishli bo'lmasa, u qanday chiziq deyiladi?

A. Fazoviy

B. Sfera

C. Tekis

D. Ellipsoid

25¹. Egri chiziqni sirkulda chizish imkoni bo'lmasa, u qanday chiziq deyiladi?

A. Fazoviy egri

B. Lekalo egri

C. Oval

D. Ovoid

26¹. Egri chiziqni sirkulda chizish mumkin bo'lsa, u qanday chiziq deyiladi?

A. Oval

B. Lekalo egri

C. Sikloida

D. Ellips

27². To'g'ri doiraviy konus o'qiga perpendikulyar tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo'ladi?

A. Ellips

B. Parabola

C. Giperbola

D. Aylana

28². To'g'ri doiraviy konus ikkita yasovchisiga parallel tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo'ladi?

- A. Ellips
- B. Parabola
- C. Giperbola
- D. Aylana

29². To'g'ri doiraviy konus bitta yasovchisiga parallel tekislik bilan kesilsa, qanday egri chiziq hosil bo'ladi?

- A. Ellips
- B. Parabola
- C. Giperbola
- D. Uchburchak

30². To'g'ri doiraviy konusning barcha yasovchilarini kesib o'tadigan tekislik konus o'qiga qiya qilib o'tkazilsa, kesimda qanday chiziq hosil qilingan bo'ladi?

- A. Ellips
- B. Parabola
- C. Giperbola
- D. Uchburchak

31². To'g'ri doiraviy konus uchi va ikkita yasovchisi orqali o'tuvchi tekislik bilan kesilsa, qanday shakl hosil bo'ladi?

- A. Ellips
- B. Parabola
- C. Giperbola
- D. Uchburchak

32². Ellips to'rtta markaz orqali sirkulda chizilsa, qanday egri chiziq yasaladi?

- A. O'rama
- B. Ovoid
- C. Oval
- D. Parabola

33³. To'g'ri chiziq qo'zg'almas aylana yoyi bo'yicha surilmasdan yumalasa, bu to'g'ri chiziqning har bir nuqtasi shaklan o'ramaga o'xshash qanday ochiq va ravon egri chiziq chizadi?

- A. Sikloida
- B. Giposikloida

C. Episikloida

D. Evolventa

34³. Aylana qo'zg'almas to'g'ri chiziq bo'yicha surilmasdan yumalasa, aylananing to'g'i chiziqdagi urinish nuqtasi qanday tekis, ravon va ochiq siklik egri chiziq chizadi?

A. Sikloida

B. Giposikloida

C. Episikloida

D. Evolventa

35³. Aylana o'zidan katta qo'zg'almas aylana ustida surilmasdan yumalab siljisa, uning qo'zg'almas aylana bilan uringan nuqtasi qanday tekis, ravon va ochiq siklik egri chiziq chizadi?

A. Sikloida

B. Giposikloida

C. Episikloida

D. Evolventa

36³. Aylana o'zidan katta qo'zg'almas aylana ichida surilmasdan yumalab siljisa, uning qo'zg'almas aylana bilan uringan nuqtasi qanday tekis, ravon va ochiq siklik egri chiziq chizadi?

A. Sikloida

B. Giposikloida

C. Episikloida

D. Evolventa

37³. Nuqta O markaz atrofida tekis aylanma harakat qiluvchi to'g'ri chiziq bo'yicha bir vaqtda ham aylanma, ham ilgarilama harakat qilsa, bu nuqta shaklan o'ramaga o'xshash qanday ochiq, ravon egri chiziq chizadi?

A. Sikloida

B. Giposikloida

C. Episikloida

D. Arximed spirali

“3. Geometrik chizmachilik” bo'yicha testlar javoblari: 1-B; 2-D; 3-D; 4-A; 5-B; 6-D; 7-B; 8-C; 9-C; 10-D; 11-B; 12-A; 13-B; 14-D; 15-C; 16-

B; 17-C; 18-D; 19-A; 20-B; 21-D; 22-C; 23-C; 24-A; 25-B; 26-A; 27-D; 28-C; 29-B; 30-A; 31-D; 32-C; 33-D; 34-A; 35-C; 36-B; 37-D.

4. PROYEKSION CHIZMACHILIK

- 1¹. "Proyeksiya" soʻzi nima maʼnoni bildiradi?
 - A. Tasvir
 - B. Chizma
 - C. Rasm
 - D. Koʻrinish
- 2¹. Proyeksiyalovchi nurlar bitta markazdan taralsa, qanday proyeksiyalash usuli deyiladi?
 - A. Parallel
 - B. Markaziy
 - C. Sonlar bilan belgilangan
 - D. Aksonometrik
- 3¹. Proyeksiyalovchi nurlar oʻzaro parallel boʻlsa, qanday proyeksiyalash hosil boʻladi?
 - A. Parallel
 - B. Markaziy
 - C. Sonlar bilan belgilangan
 - D. Aksonometrik
- 4². Detal toʻgʻrisida tezda tasavvurga ega boʻlish uchun qanday proyeksiyalash usuli qoʻllaniladi?
 - A. Parallel
 - B. Markaziy
 - C. Sonlar bilan belgilangan
 - D. Aksonometrik
- 5¹. V bilan qanday proyeksiyalar tekisligi belgilanadi?
 - A. Gorizonttal
 - B. Frontal
 - C. Profil
 - D. Aksonometrik
- 6¹. H bilan qanday proyeksiyalar tekisligi belgilanadi?
 - A. Gorizonttal

- B. Frontal
- C. Profil
- D. Aksonometrik

7¹. W bilan qanday proyeksiyalar tekisligi belgilanadi?

- A. Gorizonttal
- B. Frontal
- C. Profil
- D. Aksonometrik

8¹. Fazoda H va V proyeksiyalar tekisliklari o'zaro qanday joylashadi?

- A. Parallel
- B. Bitta tekislikda
- C. O'tkir burchakda
- D. Perpendikulyar

9¹. Tekis chizma (epyr) da H va V proyeksiyalar tekisliklari o'zaro qanday joylashadi?

- A. Parallel
- B. Bitta tekislikda
- C. O'tkir burchakda
- D. Perpendikulyar

10¹. H, V va W proyeksiyalar tekisliklari fazoda o'zaro qanday joylashishadi?

- A. Parallel
- B. Bitta tekislikda
- C. O'tkir burchakda
- D. Perpendikulyar

11². Mashinasozlik chizmalarini chizishda asosiy tasvirlash usuli sifatida qanday proyeksiyalash usuli qabul qilingan?

- A. Markaziy
- B. Parallel (ortogonal)
- C. Qiyshiq burchakli
- D. Dimetrik

12². A nuqtaning gorizonttal proyeksiyasi A' koordinata o'qi x da tasvirlansa, uning frontal proyeksiyasi A" qayerda boladi?

- A. x o'qida

B. y o'qida

C. z o'qida

D. V da

13². To'rtta bir xil muntazam uchburchakliklardan tuzilgan geometrik jism nima deyiladi?

A. Kub

B. Prizma

C. Tetraedr

D. Konus

14². Oltita bir xil kvadratlardan tuzilgan geometrik jism nima deyiladi?

A. Kub

B. Prizma

C. Tetraedr

D. Piramida

15². Umumiy uchga ega bo'lgan uchburchakliklardan tashkil topgan ko'pyoqlik nima deyiladi?

A. Prizma

B. Piramida

C. Konus

D. Silindr

16². Ko'pyoqlikning yoqlari o'zaro kesishgan chizig'i nima deyiladi?

A. Uch

B. Qirra

C. Yoq

D. Asos

17². Ko'pyoqlikning qirralari o'zaro kesishayotgan nuqtalari nima deyiladi?

A. Uch

B. Qirra

C. Yoq

D. Asos

18². Ko'pyoqlikning qirralari bilan chegaralangan tekisliklar nima deyiladi?

A. Uch

- B. Qirra
- C. Yoq
- D. Asos

19². Hamma tomonidan muntazam ko'pburchakliklar bilan chegaralangan geometrik jism nima deyiladi?

- A. Ko'pyoqlik
- B. Silindr
- C. Konus
- D. Ovoid

20¹. Gugurt qutisiga o'xshagan ko'pyoqlik nima deyiladi?

- A. Kub
- B. Piramida
- C. Oktaedr
- D. Parallelepiped

21³. i o'q atrofida, u bilan S nuqtada kesishadigan AS kesma aylantirilsa, qanday geometrik sirt hosil bo'ladi?

- A. Silindr
- B. Sfera
- C. Tor (xalqa sirt)
- D. Konus

22³. AB kesma aylanish o'qi i ga parallel bo'lib, u R radius bilan aylantirilsa, qanday geometrik sirt yasaladi?

- A. Silindr
- B. Sfera
- C. Tor (xalqa sirt)
- D. Konus

23². Aylana diametri orqali o'tgan i o'q atrofida aylantirilsa, qanday geometrik sirt hosil bo'ladi?

- A. Silindr
- B. Sfera
- C. Tor (xalqa sirt)
- D. Konus

24². Aylana, undan tashqarida olingan i o'q atrofida aylantirilsa qanday geometrik sirt yasaladi?

- A. Silindr
- B. Sfera
- C. Tor (xalqa sirt)
- D. Konus

25³. H da yotgan T nuqtaning profil proyeksiyasi T''' koordinata o'qi y da tasvirlansa, uning frontal proyeksiyasi T'' qayerda bo'ladi?

- A. x o'qida
- B. y o'qida
- C. V da
- D. Wda

26³. W da yotgan K nuqtaning frontal proyeksiyasi K'' koordinata o'qi z da tasvirlangan bo'lsa, uning gorizontal proyeksiyasi K' qayerda bo'ladi?

- A. x o'qda
- B. y o'qda
- C. z o'qda
- D. V da

27². V ga parallel to'g'ri chiziq W da qanday ko'rinishda tasvirlanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

28². H ga parallel to'g'ri chiziq V da qanday ko'rinishda tasvirlanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

29². W ga parallel to'g'ri chiziq H da qanday ko'rinishda tasvirlanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

30². H ga perpendikulyar tog'ri chiziq W ga qanday ko'rinishda proyeksiyalanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

31². V ga perpendikulyar to'g'ri chiziq H ga qanday ko'rinishda proyeksiyalanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

32². W ga perpendikulyar to'g'ri chiziq V ga qanday ko'rinishda proyeksiyalanadi?

- A. x ga parallel
- B. y ga parallel
- C. z ga parallel
- D. x ga qiya

33³. $A(x=20, y=10, z=30)$, $B(x=20, y=10, z=10)$ to'g'ri chiziq kesmasi fazoda qanday joylashgan?

- A. H ga parallel
- B. H ga perpendikulyar
- C. V ga perpendikulyar
- D. W ga perpendikulyar

34³. $A(x=10, y=20, z=0)$, $B(x=20, y=20, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasi fazoda qanday joylashgan?


- A. H ga parallel
- B. H ga perpendikulyar
- C. V ga perpendikulyar
- D. W ga perpendikulyar

35³. $A(x=10, y=10, z=10)$, $B(x=10, y=30, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasi fazoda qanday joylashgan?


- A. H ga parallel
- B. H ga perpendikulyar
- C. W ga parallel
- D. V ga perpendikulyar

- 36³. $A(x=10, y=10, z=10)$, $B(x=20, y=20, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasi fazoda qanday joylashgan?
- A. H ga parallel
 - B. H ga perpendikulyar
 - C. V ga Perpendikulyar
 - D. H, V, W larga qiya
- 37³. $A(x=10, y=0, z=10)$, $B(x=30, y=0, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasining vaziyatini aniqlang.
- A. H ga parallel
 - B. H ga perpendikulyar
 - C. V ga perpendikulyar
 - D. W ga perpendikulyar
- 38³. $A(x=0, y=0, z=0)$, $B(x=0, y=20, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasining vaziyatini aniqlang.
- A. H ga parallel
 - B. W da joylashgan
 - C. V ga perpendikulyar
 - D. W ga perpendikulyar
- 39³. $A(x=30, y=10, z=0)$, $B(x=10, y=30, z=0)$ to'g'ri chiziq kesmasining vaziyati aniqlansin.
- A. V ga parallel
 - B. H ga perpendikulyar
 - C. W ga parallel
 - D. H da joylashgan
- 40³. $A(x=0, y=20, Z=10)$, $B(x=0, y=0, z=30)$ to'g'ri chiziq kesmasining vaziyati aniqlansin.
- A. W da joylashgan
 - B. V ga parallel
 - C. H ga parallel
 - D. H ga perpendikulyar
- A.
- A. W da joylashgan
 - B. H da joylashgan
 - C. W ga parallel
 - D. H ga perpendikulyar


42¹. Chizmalardan H ga perpendikulyar chiziqni aniqlang




43¹. Chizmalardan V ga perpendikulyar chiziqni aniqlang




44¹. Chizmalardan W ga perpendikulyar chiziqni aniqlang




45¹. Chizmalardan H ga parallel chiziqni aniqlang




46¹. Chizmalardan V ga parallel chiziqni aniqlang




47¹. Chizmalardan W ga parallel chiziqni aniqlang




48¹. Chizmalardan H da yotgan nuqtani aniqlang




49¹. Chizmalardan V da yotgan nuqtani aniqlang



50¹. Chizmalardan W da yotgan nuqtani aniqlang



51¹. Chizmalardan fazoda joylashgan nuqtani aniqlang




“4.Proyeksion chizmachilik” bo‘yicha testlar javoblari: 1-D; 2-B; 3-A; 4-D; 5-B; 6-A; 7-C; 8-D; 9-B; 10-D; 11-B; 12-D; 13-C; 14-A; 15-B; 16-B; 17-A; 18-C; 19-A; 20-D; 21-D; 22-A; 23-B; 24-C; 25-A; 26-A; 27-C; 28-A; 29-B; 30-C; 31-B; 32-A; 33-B; 34-D; 35-C; 36-D; 37-D; 38-B; 39-D; 40-A; 41-D; 42-C; 43-A; 44-B; 45-D; 46-B; 47-C; 48-D; 49-A; 50-B; 51-C.

5. GEOMETRIK JISMLAR


1¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Sfera



2¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Prizma
- B. Konus
- C. Piramida
- D. Sfera




3¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Prizma




4¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Sfera




5¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Sfera




6¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Kub




7¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Kub




8¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Sfera




9¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Tor(xalqa sirt)




10¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Sfera




11¹. Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- E. Konus
- F. Silindr
- G. Piramida
- H. Sfera




12¹. Qanday geometrik sirtning yoyilmasi tasvirlangan?

- A. Konusning
- B. Piramidaning
- C. Silindrning
- D. Kubning




13¹. Qanday geometrik sirtning yoyilmasi tasvirlangan?

- A. Konusning
- B. Piramidaning
- C. Silindrning
- D. Kubning




14¹. Qanday geometrik sirtning yoyilmasi tasvirlangan?

- A. Konusning
- B. Piramidaning
- C. Silindrning
- D. Kubning




15¹. Qanday geometrik sirtning yoyilmasi tasvirlangan?

- A. Konusning
- B. Piramidaning
- C. Silindrning
- D. Kubning



16¹. Qanday geometrik sirtning yoyilmasi tasvirlangan?

- A. Konusning
- B. Piramidaning
- C. Silindrning



D. Prizmaning

17³. To'g'ri doiraviy konus yoyilmasidagi markaziy burchak α qaysi tenglama bo'yicha aniqlanadi?

- A. $\alpha = 27\pi R$
- B. $\alpha = 180^\circ d/l$
- C. $\alpha = 180^\circ R$
- D. $\alpha = 360^\circ/l$

18³. Sferaning H dagi konturi, uning qanday egri chizig'i orqali tasvirlanadi?

- A. Bosh meridiani
- B. Ekvatori
- C. Paralleli
- D. Meridiani

19³. To'g'ri doiraviy silindrning o'qi (barcha yasovchilari) V ga perpendikulyar bo'lsa, uning W dagi konturi qanday ko'rinishga ega?

- A. Aylana
- B. Trapetsiya
- C. To'g'ri to'rtburchak
- D. Uchburchak

20³. To'g'ri doiraviy konusning o'qi W ga perpendikulyar bo'lsa, uning V dagi konturi qanday ko'rinishga ega?

- A. Aylana
- B. Trapetsiya
- C. To'g'ri to'rtburchak
- D. Uchburchak

21³. Tor (xalqa sirti) ning simmetriya o'qi H ga perpendikulyar bo'lsa, uning gorizontall konturi qanday ko'rinishda bo'ladi?

- A. Aylana
- B. Trapetsiya
- C. To'g'ri to'rtburchak
- D. Uchburchak

22³. Ellipsoidning katta simmetriya o'qi V ga parallel bo'lsa, uning W dagi konturi qanday shaklga ega bo'ladi?

- A. Aylana

B. Ellips

C. Oval

D. Ovoid

23³. Ellipsoidning kichik simmetriya o'qi V ga perpendikulyar bo'lsa, uning V dagi konturi qanday shaklga ega bo'ladi?

A. Aylana

B. Ellips

C. Oval

D. Ovoid

24³. Tetraedrning asosi H ga parallel bo'lsa, uning gorizontal konturi qanday shaklda bo'ladi?

A. To'rtburchak

B. Muntazam beshburchak

C. Kvadrat

D. Uchburchak

25³. Geksaedrning yoqlaridan biri V ga parallel bo'lsa, uning frontal konturi qanday shaklda bo'ladi?

A. To'rtburchak

B. Uchburchak

C. Muntazam oltiburchak

D. Kvadrat

26³. Parallelepipedning yoqlaridan biri W ga parallel bo'lsa, uning V ga proyeksiyalangan ko'rinishi qanday shaklga ega?

A. Uchburchak

B. Ellips

C. To'g'ri to'rtburchak

D. Kvadrat

27³. Nuqta sferaning sirtida bo'lsa, u sferaning qanday elementida joylashgan boladi?

A. Parallelida

B. Yoqida

C. Qirrasida

D. Uchida

28². Nuqta konusning yon sirtida bo'lsa, u sirtning qanday elementida joylashgan bo'ladi?

- A. Meridianida
- B. Yasovchisida
- C. Qirrasida
- D. Uchida

29². Nuqta silindrning ostki tomonida joylashgan bo'lsa, u sirtning qanday elementiga tegishli hisoblanadi?

- A. Meridianida
- B. Yasovchisida
- C. Qirrasida
- D. Asosida


30². Qanday geometrik jism tasvirlangan?

- A. Konus
- B. Silindr
- C. Piramida
- D. Prizma




31². P tekislik doiraviy konusni kesganda qanday chiziq hosil bo'ladi?

- A. Parabola
- B. Aylana
- C. Ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziq
- D. Giperbola




32². P tekislik doiraviy konusni kesganda qanday chiziq hosil bo'ladi?

- A. Parabola
- B. Aylana
- C. Ikkita kesishuvchi to'g'ri chiziq
- D. Giperbola



33². P tekislik doiraviy konusni kesganda qanday chiziq hosil bo'ladi?

- A. Giperbola
- B. Aylana
- C. Ellips
- D. Parabola




34². P tekislik doiraviy konusni kesganda qanday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Giperbola
- B. Ikkita kesishuvchi to‘g‘ri chiziq
- C. Ellips
- D. Parabola




35². P tekislik doiraviy konusni kesganda qanday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Giperbola
- B. Aylana
- C. Ellips
- D. Parabola




36². Q tekislik doiraviy silindrni kesganda qnday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Aylana
- B. Parabola
- C. Ellips
- D. Giperbola




37². Q tekislik doiraviy silindrni kesganda qnday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Aylana
- B. Parabola
- C. Ellips
- D. Giperbola




38². Q tekislik doiraviy silindrni kesganda qnday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Giperbola
- B. Ikkita kesishuvchi to‘g‘ri chiziq
- C. Ellips
- D. Parabola




39². N tekislik sferani kesganda qanday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Aylana
- B. Parabola
- C. Ellips
- D. Giperbola



40². N tekislik sferani kesganda qanday chiziq hosil bo‘ladi?

- A. Ellips
- B. Parabola
- C. Aylana



D. Giperbola

"5. **Geometrik jismlar**" bo'yicha testlar javoblari: 1-A; 2-B; 3-D; 4-B; 5-D; 6-D; 7-A; 8-B; 9-D; 10-D; 11-A; 12-D; 13-B; 14-D; 15-C; 16-A; 17-B; 18-B; 19-C; 20-D; 21-A; 22-B; 23-B; 24-D; 25-D; 26-C; 27-A; 28-B; 29-D; 30-D; 31-B; 32-A; 33-C; 34-B; 35-A; 36-C; 37-A; 38-B; 39-A; 40-C.

6. O' LCHAMLAR QO'YISH

- 1¹. Chizmada o'lchamlar qo'yishda eng oldin nima tanlab olinadi?
 - A. Buyumning bazasi
 - B. Ta'mirlash jarayonidagi zagotovkaning holati
 - C. Buyumda detal holati
 - D. Zagotovka va o'lchash vositasining nisbiy holati
- 2¹. Vazifasiga ko'ra bazalar qanday ko'rinishlarda bo'ladi?
 - A. Detalning har bir o'lchami geometrik va texnologik jihatdan juda to'g'ri bo'lishi
 - B. O'lchamlar qo'yilayotganda yondosh detallar hisobga olinishi
 - C. Texnologik, konstruktorlik
 - D. O'lchamlar texnologik va konstruktorlik bazalardan boshlab qo'yilishi
- 3¹. Texnologik baza nima?
 - A. O'lchamlar qo'yishda baza tanlanadi
 - B. Buyumni tayyorlash yoki ta'mirlash jarayonida uning holatini aniqlashda foydalaniladigan
 - C. Zagotovka va o'lchash vositasining nisbat holatini aniqlash
 - D. Buyumda detal holatini aniqlash
- 4¹. Konstruktorlik baza nima?
 - A. Ta'mirlash jarayonidagi zagotovkaning holatini aniqlash
 - B. Zagotovka va o'lchash vositasining nisbiy holatini aniqlash
 - C. Buyumda detal va uning elementlarining holatini aniqlashda foydalaniladi
 - D. O'lchamlar qo'yilayotganda yondosh detallar hisobga olinishi
- 5². O'lchamlar qo'yishda qanday talablar amalga oshiriladi?
 - A. O'lchamlarni texnologik va konstruktorlik talablarini qondiradigan bazadan boshlab qo'yish

- B. O'lchamlar qo'yilayotganda yondosh detallar hisobga olinishi
- C. O'lchamlar chizmalarda o'lcham chiziqlari va o'lcham sonlari bilan ko'rsatilishi
- D. Detalning har bir o'lchami geometrik va texnologik jihatdan juda to'g'ri bo'lishi

6². O'lcham qo'yishida qanday kategoriyalar mavjud?

- A. O'lchamlar qo'yishda baza tanlash
- B. Buyumni tayyorlash yoki ta'mirlash jarayonida uning holatini aniqlashda foydalaniladigan
- C. Tutash va erkin
- D. Buyumda detal vaziyatini aniqlash

7¹. Buyum elementlarining detaldagi vaziyatiga qarab qanday bazalar tanlanadi?

- A. Konstruktorlik
- B. Texnologik
- C. Tutash
- D. Erkin

8¹. Buyumning zagotovka holatiga, tayyorlanayotgaligiga yoki ta'mirlanayotganligiga qarab qanday bazalar tanlanadi?

- A. Konstruktorlik
- B. Texnologik
- C. Tutash
- D. Erkin

9¹. Qanday o'lchamlar ma'lumot (spravka) o'lchamiga kiradi?

- A. Gabarit
- B. Montaj (yig'ish)
- C. Yopiq o'lchamlar zanjirdagilaridan bittasi
- D. Faskalar o'lchami

10¹. Chizmada o'lchamlar bitta chiziqda ketma-ket qo'yilsa, qanday o'lcham qo'yish usuli hisoblanadi?

- A. Zanjir
- B. Koordinata
- C. Aralash
- D. Konstruktorlik

- 11¹. Chizmada barcha o'lchamlar bitta bazadan qo'yilsa, qanday o'lcham qo'yish usuli hisoblanadi?
- A. Zanjir
 - B. Koordinata
 - C. Aralash
 - D. Konstruktorlik
- 12¹. Chizmada o'lchamlar qo'yishda zanjirli va koordinata usullaridan foydalanilgan usul nima deyiladi?
- A. Zanjir
 - B. Koordinata
 - C. Aralash
 - D. Konstruktorlik
- 13¹. Quyma, bolg'alangan, shtampovka, cho'zish orqali hosil qilingan detallar chizmalarida o'lchamlar qanday bazalardan qo'yiladi?
- A. Konstruktorlik
 - B. Ixtiyoriy
 - C. Texnologik
 - D. Erkin
- 14¹. Ishlov berish yo'li bilan hosil qilingan detallarga chizmada qanday bazalardan o'lchamlar qo'yiladi?
- A. Konstruktorlik
 - B. Ixtiyoriy
 - C. Texnologik
 - D. Erkin
- 15³. Qo'yim (dopusk) tushunchasiga nima kiradi?
- A. O'tqazishda detallarning biriktirish xarakterida tirqish yoki taranglikning mavjudligini aniqlash
 - B. Eng katta va eng kichik chekka o'lchamlar o'rtasidagi farq, yoki yuqorigi va pastki chetga og'ish
 - C. Buyumga qo'yilgan talablarni ta'minlash
 - D. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishini ta'minlash
- 16³. O'tqazish deb nimaga aytiladi?
- A. Buyumga qo'yilgan texnik talablarni ta'minlash
 - B. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishini ta'minlash

- C. Buyumda detal holatini aniqlash
- D. Detallarning biriktirish xarakterida tirqish yoki taranglikning mavjudligini aniqlash

17³. O'tqazishda qanday tizim mavjud?

- A. Eng katta va kichik chekka o'lchamlar o'rtasidagi farq
- B. Buyumda detal holatini aniqlash
- C. Teshik tizimi va val tizimi
- D. Ta'mirlash jarayonida zagotovkaning holatini aniqlash

18³. Qanday o'tqazishga misol keltirilgan?

- A. Tirqish bilan
- B. Taranglik bilan
- C. O'tuvchi
- D. Buyumda detal holatini aniqlash

$\frac{H7}{f7}$

19³. Qanday hollarda chizmada chekli chetga og'ish haqida umumiy yozuv yoziladi?

- A. Buyumga qo'yilgan texnik talablarda
- B. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishida
- C. Chekli chetga og'ish bevosita o'lchamda ko'rsatilmagan bo'lsa
- D. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishi ta'minlangan bo'lsa

20³. Shaklning chekli chetga og'ishi va qo'yim deb nimaga aytiladi?


- A. Talab qilingan o'tqazish ko'rinishini ta'minlashga
- B. Real sirt yoki real profil shaklidan chetga og'ish
- C. Tirqish bilan o'tqazishga
- D. Taranglik bilan o'tqazishga

21³. Shaklning umumiy chekli chetga og'ishi nima?

- A. Real sirt yoki real profil shaklidan chetga og'ish
- B. Chekli chetga og'ish bevosita o'lchamda ko'rsatilmagan
- C. Teshik tizimi va val tizimi
- D. Shaklning chekli chetga og'ishi birgalikda yuz berishi natijasi


22³. Qanday qo'yimning shartli belgisi tasvirlangan?

- A. Vaziyat qo'yimi
- B. O'qdoshlik qo'yimi
- C. Yumaloqlik qo'yimi
- D. Silindriklik qo'yimi



23². Qo'yimda A harfi nimani ifodalaydi?

- A. Izmdagi qo'yimni
- B. Qo'yimning bazasi belgisi
- C. Mustaqil qo'yim
- D. Cheklangan qo'yim



24². Val tizimidagi tirqish (zazor) bilan o'tqazish aniqlansin.


A. $\frac{H7}{p6}$; B. $\frac{K7}{h6}$; C. $\frac{H7}{h6}$; D. $\frac{e7}{h6}$

25². Teshik tizimidagi taranglik bilan o'tqazish aniqlansin.

A. $\frac{H7}{K6}$; B. $\frac{HB}{d9}$; C. $\frac{H7}{p6}$; D. $\frac{e7}{n6}$

26².

aniqlansin.




Tekislik qo'yimi

27². Yumaloqlik qo'yimi aniqlansin.




28². Qanday qo'yim tasvirlangan?

- A. Parallellik
- B. Ko'ndalang kesim
- C. Simmetriklik
- D. To'g'ri chiziqlilik




29². Qanday qo'yim ko'rsatilgan?

- A. Parallellik
- B. Ko'ndalang kesim
- C. Simmetriklik
- D. To'g'ri chiziqlilik



30². Qanday qo'yim tasvirlangan?

- A. Parallellik
- B. Ko'ndalang kesim
- C. Simmetriklik



D. Radial tepish

“6. O‘lchamlar qo‘yish” bo‘yicha testlar javoblari: 1-A; 2-C; 3-B; 4-C; 5-D; 6-C; 7-A; 8-B; 9-C; 10-A; 11-B; 12-C; 13-C; 14-A; 15-B; 16-D; 17-C; 18-A; 19-C; 20-B; 21-D; 22-A; 23-B; 24-C; 25-D; 26-D; 27-A; 28-B; 29-D; 30-D.

7. AKSONOMETRIK PROYEKSIYALAR

- 1¹. Aksonometriya so‘zi qanday ma’noga ega?
 - A. Yaqqol tasvir
 - B. Izometriya
 - C. Dimetriya
 - D. O‘qlar bo‘yicha o‘lchash
- 2¹. Ox , Oy , Oz koordinata o‘qlari orasidagi α , β , γ burchaklar o‘zaro teng bo‘lib, 120° ni tashkil qilsa, qanday aksonometriya deyiladi?
 - A. Dimetriya
 - B. Izometriya
 - C. Trimetriya
 - D. Perspektiva
- 3¹. O‘zgarish koeffitsientlari x va z o‘qlar bo‘yicha bir xil, y o‘q uchun ikki marta kam olinadigan aksonometriya nima deyiladi
 - A. Dimetriya
 - B. Izometriya
 - C. Trimetriya
 - D. Perspektiva
- 4². Ox , Oy , Oz koordinata o‘qlari bo‘yicha o‘zgarish koeffitsientlari har xil, ya’ni $x \neq y \neq z$ bolsa, qanday aksonometriya deyiladi?
 - A. Dimetriya
 - B. Izometriya
 - C. Trimetriya
 - D. Perspektiva
- 5³. Oz ga perpendikulyar qilib, gorizontal chiziqqa nisbatan esa $7^\circ 10'$ da o‘tkazilgan x , $41^\circ 25'$ da o‘tkazilgan y o‘qlar tizimi qanday aksonometriyani hosil qiladi?
 - A. To‘g‘ri burchakli dimetriya
 - B. Qiyshiq burchakli dimetriya

- C. To'g'ri burchakli izometriya
 - D. Qiyshiq burchakli izometriya
- 6³. Ox va Oz o'qlar oralig'idagi burchak 90° , Ox ning davomiga nisbatan 30° , 60° yoki 45° da y o'q o'tkazilsa, qanday aksonometriya hosil bo'ladi?
- A. To'g'ri burchakli dimetriya
 - B. Qiyshiq burchakli dimetriya
 - C. To'g'ri burchakli izometriya
 - D. Qiyshiq burchakli trimetriya
- 7³. Oz $\perp$ Ox bo'lganda, Ox ga nisbatan 45° burchakda chizilgan y o'q orqali qanday aksonometriya hosil qilinadi?
- A. To'g'ri burchakli dimetriya
 - B. Qiyshiq burchakli dimetriya
 - C. To'g'ri burchakli izometriya
 - D. Qiyshiq burchakli izometriya
- 8¹. Aksonometriya turlaridan biriga asoslanib, qo'lda chizilgan yaqqol tasvir nima deyiladi?
- A. Dimetriya
 - B. Izometriya
 - C. Trimetriya
 - D. Texnik rasm
- 9³. Jism yoqlari aksonometriya tekisligi P ga nisbatan baravar burchaklar ostida proyeksiyalansa, qanday aksonometrik proyeksiya hosil bo'ladi?
- A. Izometrik proyeksiya
 - B. Dimetrik proyeksiya
 - C. Perspektiv proyeksiya
 - D. Ortogonal proyeksiya
- 10¹. Aylana aksonometriyada ellips ko'rinishida tasvirlanadi. Uni chizish qulay bo'lishi uchun qanday egri chiziqqa almashtiriladi?
- A. Evolventaga
 - B. O'ramaga
 - C. Ovoidga
 - D. Ovalga

- 11¹. Qiyshiq burchakli frontal dimetriaday aylana V da qanday ko'rinishda tasvirlanadi?
- A. Ellips
 - B. Oval
 - C. Aylana
 - D. Ovoid
- 12². To'g'ri burchakli aksonometriyada aylanalar qanday ko'rinishda tasvirlanadi?
- A. Ellips
 - B. Oval
 - C. Aylana
 - D. Ovoid
- 13². Qanday aksonometriyada kesim yuzasi $Ox=Oy=Oz=1$ ko'rinishida shtrixlanadi?
- A. Frontal dimetriya
 - B. Frontal izometriyada
 - C. Gorizontal izometriyada
 - D. To'g'ri burchakli izometriyada
- 14². Qanday aksonometriyada kesim yuzasi $Ox=Oz=1$, $Oy=0,5$ ko'rinishida shtrixlanadi?
- A. Dimetriyada
 - B. Izometriyada
 - C. Trimetriyada
 - D. Perspektivada
- 15². Izometriyada kvadrat tomonlari koordinata o'qlariga parallel bo'lsa, u qanday ko'rinishda tasvirlanadi?
- A. Kvadrat
 - B. To'g'ri to'rtburchak
 - C. Parallelogram
 - D. Romb
- 16². Izometriyada ellipsning katta o'qi qaysi tekislikda Oz ga perpendikulyar tasvirlanadi?
- A. W da
 - B. V da

C. H da

D. P da

17². Izometriyada ellipsning katta o'qi qaysi tekislikda Ox ga perpendikulyar tasvirlanadi?

A. W da

B. V da

C. H da

D. P da

18². Izometriyada ellipsning katta o'qi qaysi tekislikda Oy ga perpendikulyar tasvirlanadi?

A. W da

B. V da

C. H da

D. P da

19². Izometriyada ellipsning kichik o'qi qaysi tekislikda Oy bilan qo'shilib qoladi?

A. W da

B. V da

C. H da

D. P da

20². Izometriyada ellipsning kichik o'qi qaysi tekislikda Oz bilan qo'shilib qoladi?

A. W da

B. V da

C. H da

D. P da

21². Izometriyada ellipsning kichik o'qi qaysi tekislikda Ox bilan qo'shilib qoladi?


A. W da

B. V da

C. H da

D. P da


- 22³. Aylana izometriyada $x = y = z = l$ qiymatda chizilgan bo'lsa, hosil bo'lgan ellipsning katta o'qi AB aylana diametri d ga nisbatan qanday qiymatga ega?
- A. 0,7 d
 - B. 0,9 d
 - C. 1,10 d
 - D. 1,22 d
- 23³. Aylana izometriyada $x = y = z = l$ qiymatda chizilgan bo'lsa, hosil bo'lgan ellipsning kichik o'qi CD aylana diametri d ga nisbatan qanday qiymatga ega?
- A. 0,7 d
 - B. 0,9 d
 - C. 1,10 d
 - D. 1,2 d
- 24³. Aylana frontal dimetriyada $x = z = l$ qilib V da chizilsa, y qanday ko'rinishga ega bo'ladi?
- A. Ellips
 - B. Aylana
 - C. Oval
 - D. Ovoid
- 25³. To'g'ri doiraviy silindr o'qi H ga perpendikulyar bo'lganda, frontal dimetriyada chizilishini qulay bo'lishi uchun, u qaysi aksonometriya tekisligiga perpendikulyar qilib almashtiriladi?
- A. W ga
 - B. P ga
 - C. T ga
 - D. V ga
- 26³. Aksonometrik proyeksiyalar qanday hususiyatga ega?
- A. Parallel proyeksiyalash
 - B. Markaziy proyeksiyalash
 - C. Perspektiv proyeksiyalash
 - D. Son ishorali proyeksiyalash
- 27¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?
- A. To'g'ri burchakli dimetriya



- B. Qiyshiq burchakli trimetriya
- C. To'g'ri burchakli izometriya
- D. Qiyshiq burchakli gorizontal izometriya


28¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. Qiyshiq burchakli frontal izometriya
- B. To'g'ri burchakli trimetriya
- C. Qiyshiq burchakli frontal dimetriya
- D. To'g'ri burchakli izometriya




29¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. To'g'ri burchakli dimetriya
- B. Qiyshiq burchakli gorizontal izometriya
- C. Qiyshiq burchakli trimetriya
- D. To'g'ri burchakli izometriya




30¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. Qiyshiq burchakli gorizontal izometriya
- B. To'g'ri burchakli trimetriya
- C. To'g'ri burchakli izometriya
- D. Qiyshiq burchakli trimetriya




31¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. Qiyshiq burchakli gorizontal izometriya
- B. To'g'ri burchakli dimetriya
- C. To'g'ri burchakli izometriya
- D. Qiyshiq burchakli trimetriya




32¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. Qiyshiq burchakli frontal izometriya
- B. Qiyshiq burchakli frontal dimetriya
- C. To'g'ri burchakli dimetriya
- D. To'g'ri burchakli trimetriya



33¹. Qanday aksonometrik proyeksiya o'qlari tasvirlangan?

- A. To'g'ri burchakli izometriya
- B. Qiyshiq burchakli trimetriya
- C. Qiyshiq burchakli frontal izometriya
- D. Qiyshiq burchakli gorizontal izometriya



"7. Aksonometrik proyeksiyalar" bo'yicha testlar javoblari: 1-D; 2-B; 3-A; 4-C; 5-A; 6-D; 7-B; 8-D; 9-A; 10-D; 11-C; 12-A; 13-D; 14-A; 15-D; 16-C; 17-A; 18-B; 19-B; 20-C; 21-A; 22-D; 23-A; 24-B; 25-D; 26-A; 27-A; 28-B; 29-D; 30-A; 31-D; 32-B; 33-C.

8. KO'RINISHLAR, QIRQIM, KESIM.

- 1¹. Ko'rinish deb nimaga aytiladi?
 - A. Detalning kuzatuvchiga ko'rinib turgan tomonining tasviri
 - B. Detalning tekislikka qarab turgan tomonining tasviri
 - C. Detalning texnik rasmi
 - D. Detalning eskizi
- 2². Qo'shimcha ko'rinish deb nimaga aytiladi?
 - A. Kubning yoqlaridagi detal tasviri
 - B. Asosiy proyeksiyalar tekisligiga parallel bolmagan tekislikdagi tasvir
 - C. Detal sirtining alohida chegaralangan joyining tasviri
 - D. Detalning V dagi tasviri
- 3². Mahalliy ko'rinish deb nimaga aytiladi?
 - A. Kubning yoqlaridagi detal tasviri
 - B. Asosiy proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmagan tekislikdagi tasvir
 - C. Detal sirtining alohida chegaranlgan joyining tasviri
 - D. Detalning V dagi tasviri
- 4¹. Asosiy ko'rinishlar nechta?
 - A. Beshta
 - B. Ikkita
 - C. Uchta
 - D. Oltita
- 5¹. Qaysi tekislikdagi detal ko'rinishi bosh ko'rinish deb qabul qilingan?
 - A. Gorizontal
 - B. Frontal
 - C. Profil
 - D. Aksonometrik
- 6¹. Detalning H dagi tasviri qanday ko'rinish hisoblanadi?

- A. Olddan
- B. Chapdan
- C. Ustdan
- D. O'ngdan

7¹. Detalning H_1 qagi tasviri qanday ko'rinish hisoblanadi?

- A. Olddan
- B. Chapdan
- C. Ustdan
- D. Ostdan

8¹. Detalning V dagi tasviri qanday ko'rinish hisoblanadi?

- A. Olddan
- B. Chapdan
- C. Ustdan
- D. O'ngdan

9¹. Detalning W dagi tasviri qanday ko'rinish hisoblanadi?

- A. Olddan
- B. Chapdan
- C. Ustdan
- D. O'ngdan

10¹. Detalning bosh ko'rinishi deb qanday ko'rinishga aytiladi?

- A. Detal to'g'risida eng ko'p ma'lumot beradigan ko'rinishga
- B. Detalning alohida chegaralangan qismiga
- C. Asosiy proyeksiyalar tekisligiga parallel bo'lmagan ko'rinishga
- D. Detalning H dagi tasviriga

11². Qachon chizmada ko'rinishlarni tushuntiruvchi yozuv bilan ta'minlanadi?

- A. Ko'rinish H da bolsa
- B. Ko'rinish burib tasvirlanganda
- C. Ko'rinish proyeksion bog'langan bo'lsa
- D. Ko'rinish V da bo'lsa

12¹. Detalning asosiy ko'rinishi qaysi proyeksiyalar tekisligida tasvirlanadi?

- A. Gorizonta
- B. Profil

- C. Frontal
- D. Aksonometrik

13². Detalning asosiy ko‘rinishi ustdan ko‘rinishiga nisbatan qanday joylashadi?

- A. O‘ng tomonda
- B. Ustida
- C. Ostida
- D. Chap tomonda

14¹. Detalning qaysi ko‘rinishi V da chiziladi?

- A. Mahalliy
- B. Ustdan
- C. Asosiy (bosh)
- D. Chapdan

15². Qirqim nima?

- A. Detalning fikran tekislik bilan qirqilgan (kesilgan) joyi
- B. Faqat kesuvchi tekislikdagi detal tasviri
- C. Kesuvchi tekislikkacha bo‘lgan detalning tasviri
- D. Detalning kesuvchi tekislikda hosil bo‘ladigan kesimi va uning orqasida joylashgan detal qismi birlashgan tasvir

16¹. Detal bitta kesuvchi tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo‘ladi?

- A. Murakkab
- B. Qo‘shimcha
- C. Oddiy
- D. Siniq

17¹. Detal ikkita tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo‘ladi?

- A. Murakkab
- B. Qo‘shimcha
- C. Oddiy
- D. Siniq

18². Detal H ga parallel tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo‘ladi?

- A. Profil
- B. Frontal

C. Qiya

D. Gorizontal

19¹. Detal V ga parallel tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo‘ladi?

A. Profil

B. Frontal

C. Qiya

D. Gorizontal

20¹. Detal W ga parallel tekislik bilan kesilganda qanday qirqim hosil bo‘ladi?

A. Profil

B. Frontal

C. Qiya

D. Gorizontal

21³. Kesuvchi tekislik detalning uzunligi yoki balandligi bo‘yicha o‘tkazilsa, qanday qirqim hosil bo‘ladi?

A. Tasvirlararo

B. Ustiga chizilgan

C. Chiqarilgan

D. Bo‘ylama

22³. Kesuvchi tekislik detalning simmetriya o‘qiga perpendikulyar qilib o‘tkazilsa, qanday qirqim hosil bo‘ladi?

A. Tasvirlararo

B. Ustiga chizilgan

C. Chiqarilgan

D. Ko‘ndalang

23¹. Detalning ko‘rinishini qirqimi bilan qo‘shib tasvirlashga nima deyiladi?

A. Mahalliy

B. Ko‘ndalang

C. Bo‘ylama

D. Ko‘rinishning yarmini qirqimning yarmi bilan birlashtirish

24². Detal qism ko‘rinishini qirqimi bilan qo‘shib tasvirlashga nima deyiladi?

- A. Mahalliy
- B. Ko'ndalang
- C. Murakkab
- D. Ko'rinishning qismini qirqimning qismi bilan birlashtirish

25¹. Detalning ayrim joylari (teshik, o'yiq kabi) ni aniqlash maqsadida qanday qirqim qo'llaniladi?

- A. Mahalliy
- B. Siniq
- C. Pog'onali
- D. Murakkab

26². Detalning ichki ko'rinishlarini aniqlashda ikki va undan ortiq kesuvchi tekisliklar qo'llanilsa, qanday qirqim deyiladi?

- A. Gorizonttal
- B. Frontal
- C. Profil
- D. Murakkab

27¹. Kesuvchi tekisliklar o'zaro parallel joylashgan bo'lsa, qanday qirqim deyiladi?

- A. Gorizonttal
- B. Pog'onali
- C. Frontal
- D. Profil

28¹. Kesuvchi tekisliklar o'zaro kesishuvchi bo'lsa, qanday qirqim deyiladi?

- A. Gorizonttal
- B. Pog'onali
- C. Profil
- D. Siniq

29². Kesim nima?

- A. Detalning faqat kesuvchi tekislik bilan kesilgan joy tasviri
- B. Detalning kesuvchi tekislik bilan kesilgan joy va uning orqasidagi detal qismi qo'shilgan tasvir
- C. Detalning fikran tekislik bilan kesilishi
- D. Kesuvchi tekislikkacha bo'lgan detal qismi tasviri

- 30². Detal tasviridan tashqarida bajarilgan kesim nima deyiladi?
- A. Mahalliy
 - B. Ustiga chizilgan
 - C. Chiqarilgan
 - D. Qo‘shimcha
- 31². Bevosita tasvirning o‘zida chizilgan kesim nima deyiladi?
- A. Mahalliy
 - B. Ustiga chizilgan
 - C. Chiqarilgan
 - D. Qo‘shimcha
- 32³. Tasvirlararo kesimda kesim konturi qanday chiziqda chiziladi?
- A. Ingichka tutash
 - B. Shtrix
 - C. Asosiy yo‘g‘on tutash
 - D. Shtrix-punktir
- 33³. Ustiga chizilgan kesimda kesim konturi qanday chiziqda chiziladi?
- A. Ingichka tutash
 - B. Shtrix
 - C. Asosiy yo‘g‘on tutash
 - D. Shtrix-punktir
- 34³. Qirqimga kiritilmagan kesim nima deyiladi?
- A. Mahalliy
 - B. Chiqarilgan
 - C. Qo‘shimcha
 - D. Siniq
- 35³. Simmetrik detallarning qirqimida qanday soddalashtirishlarga yo‘l qo‘yiladi?
- A. Detalning qirqilgan joylarini shtrixlashga
 - B. Ko‘rinishning yarmini qirqimning yarmi bilan birlashtirishga
 - C. Detalning bir qismini qo‘shimcha tasvirlashga
 - D. Detalning qirqilgan joyini shtrixlamaslikka
- "8. Ko‘rinishlar, qirqim, kesim"** bo‘yicha testlar javoblari: 1-A; 2-B; 3-C; 4-D; 5-B; 6-C; 7-D; 8-A; 9-B; 10-A; 11-B; 12-C; 13-B; 14-C; 15-D;

16-C; 16-A; 18-D; 19-B; 20-A; 21-D; 22-D; 23-D; 24-D; 25-A; 26-A; 27-B; 28-D; 29-A; 30-C; 31-B; 32-C; 33-A; 34-B; 35-B.

9. CHIZMALARDA SHARTLILIK VA SODDALASHTIRISHLAR

- 1¹. Detalning qanday elementini qisman tasvirlashga yo‘l qo‘yiladi?
 - A. Tekis yuzalarga ingichka tutash chiziqda diogonal o‘tkazishga
 - B. Doimiy yoki qonuniy ravishda o‘zgarib boruvchi uzun detallarga ko‘ndalang kesim tadbqiq qilish
 - C. Detallardagi naqsh, relyef, nakatka va toliq to‘rlarni tasvirlashda
 - D. Detalning kesim va qirqimi tasvirida
- 2². Qanday tasvirlarda materiallar grafik usulda ko‘rsatiladi?
 - A. Buyumning kesimi va qirqimida
 - B. Detallardagi naqsh, relyef, nakatka va to‘liq to‘rlarni tasvirlashda
 - C. Doimiy yoki qonuniy ravishda o‘zgarib boruvchi uzun detallarga ko‘ndalang kesim tadbqiq qilish
 - D. Tekis yuzalarga ingichka tutash chiziqda diogonal o‘tkazish orqali
- 3². Detal tasvirida tekis yuzalar uchrasa, ularga qanday shartli belgilar qo‘yiladi?
 - A. Detallardagi naqsh, relyef, nakatka va to‘liq to‘rlar ingichka chiziqlarda chiziladi
 - B. Ingichka tutash chiziqlarda diagonallar o‘tkaziladi
 - C. Detalning qirqimi qo‘llaniladi
 - D. Detalning kesimi qo‘llaniladi
- 4¹. Detallarda uchraydigan mustahkamlash qovurg‘alari bo‘ylama qirqimga tushsa, ularning yuzalari shtrixlanadimi?
 - A. Qovurg‘alar ingichka chiziqda ajratib qo‘yiladi
 - B. Shtrixlanadi
 - C. Shtrixlanmaydi
 - D. Qovurg‘alarning qalinligiga qarab shtrixlanishi mumkin
- 5². Ko‘qanday shartli belgilardan foydalaniladi?
 - A. Shartli belgilardan foydalanilmaydi
 - B. Tekis detal qalinligi 5 mm dan kam bo‘lsa, bitta ko‘rinishda chiziladi

- C. Turli qalinlikdagi tekis detaining har bir qalinligining o'lchamlari ko'rsatiladi
 - D. Diametr, kvadrat, konuslik, qiyalik, qalinlik kabi shartli belgilardan foydalaniladi
- 6¹. Silindr, konus, sfera kabi sirtlardan tuzilgan detallarni, masalan, valni chizishda shartli belgilar qo'llanilsa, ularni nechta ko'rinishda tasvirlash mumkin?
- A. Beshta
 - B. To'rtta
 - C. Uchta
 - D. Bitta
- 7¹. Uzun detallarni kaltaroq qilib, mashtabni o'zgartirmasdan tasvirlash uchun nima qilinadi?
- A. Tasvirlarni uzib tasvirlash qo'llaniladi
 - B. Detalning bir qismini elementlari bilan ko'rsatiladi
 - C. Turli qalinlikdagi joylarining kesimlari ko'rsatiladi
 - D. Turli ko'rinishdagi shartli belgilardan foydalaniladi
- 8¹. Detallarda uchraydigan mustahkamlash qovurg'alari ko'ndalang qirqimga tushsa, qirqim yuzalari shtrixlanadimi?
- A. Qovurg'alar ingichka chiziqda ajratib qo'yiladi
 - B. Shtrixlanadi
 - C. Shtrixlanmaydi
 - D. Qovurg'alarining qalinligiga qarab shtrixlanishi mumkin
- 9³. Detallardagi mustahkamlash qovurg'alarida kichik teshiklar uchrasa, ular qanday ko'rsatiladi?
- A. U joylar ingichka chiziqda ajratib qo'yiladi
 - B. Shtrixlanadi
 - C. Shtrixlanmaydi
 - D. Teshik umumiy qirqim qatorida mahalliy qirqim orqali ko'rsatiladi
- 10². Tishli g'ildirak, shkiqlar gupchagidagi teshiklar, shponka pazlari qanday shartli ko'rsatiladi?
- A. Ularning faqat konturlari ko'rsatiladi
 - B. Ular chizmada shartli ko'rsatilmaydi
 - C. Ularning konturlari ingichka chiziqda tasvirlanadi

D. Ularning oʻrni markaz chiziqlarida belgilab qoʻyiladi

11³. Chiqarish elementi deb nimaga aytiladi?

- A. Chiqarish elementining asosiy tasvirdagi tegishli joyida ingichka tutash chiziqda aylana chiziladi va u rim raqami bilan belgilanadi.
- B. Chiqariladigan detal elementi asosiy tasvirda ingichka toʻlqinsimon chiziq bilan chegaralanadi
- C. Detalning biror qismi asosiy koʻrinishda juda kichik va soddalashtirilib tasvirlangan boʻlsa, u joyning shaklini alohida kattalashtirib toʻla koʻrsatishga
- D. Asosiy tasvir qirqimda, chiqarish elementi koʻrinishda boʻladi

12³. Chiqarib tasvirlangan element qanday belgilanadi?

- A. Chiqariladigan detal elementi asosiy tasvirda ingichka toʻlqinsimon chiziq bilan chegaralanadi
- B. Detalning biror qismi asosiy koʻrinishda juda kichik va soddalashtirilib tasvirlangan bolsa, u joyning shaklini alohida kattalashtirib tola koʻrsatiladi
- C. Asosiy tasvir qirqimda, chiqarish elementi koʻrinishda boʻladi
- D. Chiqarib tasvirlangan elementning ustida tegishli rim raqami va uning ostida tasvir qanday mashtabda chizilganligi koʻrsatiladi

"9. Chizmalarda shartliliklar va soddalashtirishlar" boʻyicha testlar javoblari: 1-C; 2-A; 3-B; 4-C; 5-D; 6-D; 7-A; 8-B; 9-D; 10-A; 11-C; 12-D;

10 . VINT CHIZIQLAR, REZBALAR VA REZBALI BIRIKMALAR

1¹. Vint chizigʻi deb nimaga aytiladi?

- A. Silindrik yoki konus sirtida tekis konturning vintsimon harakati natijasida hosil boʻlgan sirt
- B. Silindrning yasovchilari boʻyicha ham ilgarilama, ham aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq
- C. Nuqtaning silindr yasovchilari boʻyicha bir marta aylanishida oʻtgan masofaga
- D. Keskich bir marta aylanib sterjenni qirqqanda hosil boʻlgan vintli chiziq

2³. Vint yo‘li deb nimaga aytiladi?

- A. Silindrik yoki konus sirtida tekis konturning vintsimon harakati natijasida hosil bo‘lgan sirt
- B. Silindrning yasovchilari bo‘yicha bir xil ilgarilama va aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq
- C. Nuqtaning silindr yasovchilari bo‘yicha bir marta aylanishida o‘tgan masofa
- D. Keskich bir marta aylanib sterjenni qirqqanda hosil bolgan vintli chiziq

3³. Vint ipi deb nimaga aytiladi?

- A. Silindrik yoki konus sirtida tekis konturning vintsimon harakati natijasida hosil bolgan sirt
- B. Silindrning yasovchilari bo‘yicha bir xil ilgarilama va aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq
- C. Nuqtaning silindr yasovchilari bo‘yicha bir marta aylanishida o‘tgan masofasiga
- D. Keskich bir marta aylanib sterjenni qirqqanda hosil bo‘lgan vintli chiziq

4¹. Rezba deb nimaga aytiladi?

- A. Silindrik yoki konus sirtida tekis konturning vintsimon harakati natijasida hosil bolgan sirt
- B. Silindrning yasovchilari bo‘yicha ham ilgarilama, ham aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq
- C. Nuqtaning silindr yasovchilari bo‘yicha bir marta aylanishida o‘tgan masofasiga
- D. Keskich bir marta aylanib sterjenni qirqqanda hosil bo‘lgan vintli chiziq

5³. Ko‘p kirimli rezba nima?

- A. Silindrik yoki konus sirtida tekis konturning vintsimon harakati natijasida hosil bo‘lgan sirt
- B. Silindrning yasovchilari bo‘yicha ham ilgarilama, ham aylanma harakat qilishda nuqta hosil qilgan fazoviy egri chiziq
- C. Nuqtaning silindr yasovchilari bo‘yicha bir marta aylanishida o‘tgan masofasiga

D. Sterjen sirtining bitta uchastkasida qirqilgan bir nechta vintli iplar

6². Yirik qadamli metrik rezbalar qachon qo‘llaniladi?

- A. Mustahkamlash darajasi shartiga ko‘ra
- B. O‘z-o‘zidan buralib ketishga qarshi joylarda
- C. Asosan yupqa devorli detallarda
- D. Silindrik va konus sirlarda

7³. Mayda qadamli metrik rezbalar qachon qo‘llaniladi?

- A. Mustahkamlash darajasi shartiga ko‘ra
- B. O‘z-o‘zidan buralib ketishga qarshi joylarda
- C. Asosan yupqa devorli detallarda
- D. Silindrik va konus sirlarda

8³. Mayda qadamli metrik rezbalar asosan qanday detallarda o‘yiladi?

- A. Mustahkamlash darajasi shartiga ko‘ra
- B. O‘z-o‘zidan buralib ketishga qarshi joylarda
- C. Asosan yupqa devorli detallarda
- D. Silindrik va konus sirlarda

9². O‘z-o‘zidan buralib ketmaslikni ta’minlash uchun qanday rezbadan foydalaniladi?

- A. Tirakli rezba
- B. Yirik qadamli metrik rezba
- C. Dyuyimli rezba
- D. Mayda qadamli metrik rezba

10¹. Quvurli birikmalarda qanday rezba qo‘llaniladi?

- A. Yirik qadamli metrik rezba
- B. Mayda qadamli metrik rezba
- C. Tirakli rezba
- D. Dyuyimli rezba

11¹. Quvurli birikmalarda qanday detal biriktiruvchi hisoblanadi?

- A. Gayka
- B. Bo‘lt
- C. Mufta
- D. Shayba

12¹. Metrik rezbaning profili qanday ko‘rinishga ega?

- A. 55° dagi uchburchakli

- B. 60° dagi uchburchakli
- C. Yarim yumaloqli
- D. To'g'ri to'rtburchakli

13². Quvurli rezbaning profili qanday ko'rinishga ega?

- A. 55° dagi uchburchakli
- B. 60° dagi uchburchakli
- C. Yarim yumaloqli
- D. To'g'ri to'rtburchakli

14³. Kontaktli rezbaning profili qanday ko'rinishga ega?

- A. 55° dagi uchburchakli
- B. 60° dagi uchburchakli
- C. Yarim yumaloqli
- D. To'g'ri to'rtburchakli

15³. Suriluvchi mexanizmda profili qanday ko'rinishdagi rezba qo'llaniladi?

- A. 55° dagi uchburchakli
- B. 60° dagi uchburchakli
- C. Yarim yumaloqli
- D. Trapetsiyasimon ko'rinishga

16³. Rezba elementlariga nimalar kiradi?

- A. Qadami, yo'li, kirimi
- B. Chizig'i, ipi, chiqig'i
- C. Sbegi, protochkasi, faskasi
- D. Sirti, egri chizig'i, qadami

17². Rezbaning sbegi nima?

- A. Rezbaning chiqishi
- B. Rezbaning qadami
- C. Rezbaning yo'li
- D. Rezbaning chiqig'i

18². Rezbaning protochkasi nima?

- A. Rezbaning faskasi
- B. Profili to liq bo'lmagan rezbaning chiqishi
- C. Profili to'liq bo'lmagan rezbaning kirishi
- D. Sbeg o'rniga ishlangan xalqasimon joy

- 19². Rezbaga faska nima uchun bajariladi?
- A. Rezba profili to‘liq bo‘lmagan hollarda
 - B. Teshikdagi rezbaning oxirgi o‘ramlarini shikastlanishdan saqlash uchun
 - C. Sbeg o‘rniga ishlanadi
 - D. Rezba profili to‘liq ishlagan joylarda
- 20². Rezbali biriktirish detallariga nimalar kiradi?
- A. Shtiftlar, shaybalar
 - B. Shplintlar, shponkalar
 - C. Boltlar, shpilkalar
 - D. Parchin mixlar
- 21³. Biriktirish detallari qanday aniqlikda tayyorlanadi?
- A. Bir kirimli
 - B. Ko‘p kirimli
 - C. Kontaktli
 - D. Dag‘al aniqlikda, normal aniqlikda, yuqori aniqlikda
- 22³. Muhandislik amaliyotida qanday maxsus boltlardan foydalaniladi?
- A. Tashlama bolt, rim-bolt
 - B. Tojsimon kallakli bolt
 - C. Kallagi olti yoqli prizmatik bolt
 - D. Kvadrat kallakli bolt
- 23². Bolt tadbiq qilishga imkon bo‘lmagan joylarda nima ishlatiladi?
- A. Tashlama bolt, rim-bolt
 - B. Shtift
 - C. Shpilka
 - D. Shponka
- 24². Yog‘och va plastmassalar uchun ishlatiladigan vint nima deyiladi?
- A. Shponka
 - B. Shtift
 - C. Shplint
 - D. Shurup
- 25². Ikkala uchiga rezba o‘yilgan detal nima deyiladi?
- A. Shponka
 - B. Shtift

C. Shplint

D. Shpilka

26². Biriktirish detallaridan biri burab kiritiladigan uya nima deyiladi?

A. Shpilka uyasi

B. Shtift uyasi

C. Shponka uyasi

D. Shurup uyasi

27². Detallarni biriktirishda qanday rezbali teshikli detaldan foydalaniladi?

A. Shayba

B. Gayka

C. Vint

D. Qistirma

28¹. Biriktiruvchi va biriktiriluvchi detallarning yuzalarini buzilishidan saqlaydigan detal nima deyiladi?

A. Shayba

B. Gayka

C. Vint

D. Qistirma

29². Harakat davrida gaykalarining o‘z-o‘zidan buralib ketmasligini saqlaydigan qanday biriktirish detali tadbiq qilinadi?

A. Shurup

B. Gayka

C. Shplint

D. Shtift

30². Valga shkivni biriktirishda bosim ostida kiritiladigan qanday detal qo‘llaniladi?

A. Shurup

B. Gayka

C. Shplint

D. Shtift

31³. Yarim yumaloq va yashirin kallakli bolt (vint) lar kallagi ostida qo‘shimcha qilib nima tayyorlanadi?

A. Shayba

B. Murtak

- C. Shtift
- D. Shponka

32². Qo‘lda burab kiritiladigan gayka nima deyiladi?

- A. Chiqiqqli gayka
- B. Tojsimon gayka
- C. Quloqli gayka
- D. Baland gayka

33³. Ish sharoitida o‘q bo‘yicha yo‘nalgan zo‘riqish ko‘p bo‘lgan hollarda qanday gayka qo‘llaniladi?

- A. Chiqiqqli gayka
- B. Tojsimon gayka
- C. Quloqli gayka
- D. Baland gayka

34³. Zarb, tebranish, silkinishlar ta’sirida gaykalar o‘z-o‘zidan buralib ketmasligini oldini olish uchun qanday shaybalar qo‘llaniladi?

- A. Oddiy
- B. Bir tomonlama qiyshiq
- C. Tirak
- D. Prujinasimon

35³. Shveller va qo‘shstavrlarning qiyaliklarini to‘g‘rilash uchun qanday shaybalar qo‘llaniladi?

- A. Oddiy
- B. Bir tomonlama qiyshiq
- C. Tirak
- D. Panjali

36³. Quvurlarni o‘qlari o‘zaro to‘g‘ri burchakda kesishadigan qilib ulashda qanday fittingdan foydalaniladi?

- A. To‘g‘ri
- B. Tirsakli
- C. O‘tish
- D. Kontrgayka

37². Quvurli birikmalarda kanop tolasidan o‘ralgan moyli zichlagichlarni zichlash uchun qanday detaldan foydalaniladi?

- A. Mufta

- B. Tirsak
- C. Kontrgayka
- D. Tiqin

38². Muftalarning bir tomoni ikkinchi tomoniga nisbatan katta yoki kichik bo'lsa, qanday mufta deyiladi?

- A. To'g'ri
- B. Krestli (hojli)
- C. Tirsakli
- D. O'timli

39². Metrik rezbaning katta diametri d ga nisbatan, uning kichik diametri d_1 , qanchaga teng boladi?

- A. $d_1 = 0,8 d$
- B. $d_1 = 0,9 d$
- C. $d_1 = 0,7 d$
- D. $d_1 = 0,85 d$

40². Rezballi sterjenda rezbasining kichik (ichki) diametri d_1 chizmada qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Ingichka tutash
- B. Shtrix
- C. Ingichka shtrix-punktir
- D. Ingichka to'liqinsimon

41². Chizmada rezballi teshikning katta diametri d qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Asosiy tutash yo'g'on
- B. Shtrix
- C. Ingichka tutash
- D. Ingichka shtrix-punktir

42². Chizmada rezballi teshikning kichik diametri d_1 qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Ingichka tutash
- B. Shtrix
- C. Ingichka shtrix-punktir
- D. Ingichka to'liqinsimon

- 43¹. Normal boltlarda kallagining balandligi H rezbasining tashqi (katta) diametri d ga nisbatan qanday kattalikda olinadi?
- A. $H = 0,7d$
 - B. $H = 0,8d$
 - C. $H = 0,85d$
 - D. $H = 0,9d$
- 44². Normal boltlarda kallagining burchaklarini qamrab oluvchi aylana diametri D rezbasining katta diametri d ga nisbatan qanday olinadi?
- A. $H = d$
 - B. $H = 1,5d$
 - C. $H = 2d$
 - D. $H = 2,2d$
- 45¹. Normal gaykalarda uning balandligi H rezbasining katta diametri d ga nisbatan qanday olinadi?
- A. $H = 0,7d$
 - B. $H = 0,8d$
 - C. $H = 0,85d$
 - D. $H = 0,9d$
- 46¹. Chizmada shpilkaning torets ko‘rinishida sterjendagi rezbaning kichik (ichki) diametri d_1 qanday tasvirlanadi?
- A. Butun aylana ingichka tutash chiziqda
 - B. Chorak aylana ingichka tutash chiziqda
 - C. Yarim aylana ingichka tutash chiziqda
 - D. Choragi kam aylananing bir uchi simmetriya markaz chizig‘ini bir oz kesib o‘tsa, ikkinchi uchi kesmaydi
- 47¹. Rezballi teshikning torets ko‘rinishida uning kichik diametri d_1 qanday tasvirlanadi?
- A. Ingichka tutash chiziqda
 - B. Shtrix chiziqda
 - C. Ingichka shtrix-punktir chiziqda
 - D. Asosiy tutash yo‘g‘on chiziqda
- 48². Chizmada soddalashtirib tasvirlangan boltli va shpilkali birikmalarda rezbalari qanday ko‘rsatiladi?
- A. Butun sterjen bo‘yicha

- B. Faqat rezbali qismlariga chiziladi
- C. Rezbasi ko'rsatilmaydi
- D. Faskalari chiziladi

49³. Buyumda o'rnatish vintlari qanday vazifani bajaradi?


- A. Detallarni biriktirish
- B. Bir detalning vaziyatini ikkinchisiga nisbatan moslash
- C. Detallarni sozlash
- D. Detallarni surish

50¹. Shpilka uyasiga burab kiritiladigan shpilka qismining uzunligi l_1 rezbasining diametri d ga nisbatan qancha olinadi?

- A. $l_1 = 0,5d$
- B. $l_1 = 0,8d$
- C. $l_1 = d$
- D. $l_1 = 2,8d$


51¹. Chizmada nima tasvirlangan?

- A. Vint
- B. Maxsus bolt
- C. Parchin mix
- D. Shurup




52¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Metrik rezba
- B. Dyuymli rezba
- C. Silindrik truba rezba
- D. Konus truba rezba




53¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Konus truba rezba
- B. Dyuymli rezba
- C. Silindrik rezba
- D. Dyuymli konus rezba



54³. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Dyuymli rezba
- B. Silindrik truba rezba
- C. Dyuymli konus rezba
- D. Trapetsiyasimon rezba




55¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Konus truba rezba
- B. Trapetsiyasimon rezba
- C. Silindrik truba rezba
- D. Tirak rezba


56³. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Metrik rezba
- B. Dyuyimli konus rezba
- C. Tirak rezba
- D. Silindrik truba rezba




57¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Trapetsiyasimon rezba
- B. Dyuyimli konus rezba
- C. Metrik rezba
- D. Tirak rezba




58¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Dyuyimli rezba
- B. Silindrik truba rezba
- C. Trapetsiyasimon rezba
- D. Metrik rezba




59¹. Qanday rezba profili tasvirlangan?

- A. Trapetsiyasimon rezba
- B. Metrik rezba
- C. Tirak rezba
- D. To'g'ri burchakli standart bo'lmagan rezba




60¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Shpilka
- B. Bolt
- C. Shurup
- D. Vint



61¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?


- A. Shpilka
- B. Bolt
- C. Shurup



D. Vint


62¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Shpilka
- B. Bolt
- C. Shurup
- D. Vint




63¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Shpilka
- B. Bolt
- C. Shurup
- D. Vint




64¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Kontrgayka
- B. Qopqoq
- C. Vint
- D. Ustama gayka




65¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Kontrgayka
- B. Qopqoq
- C. Gayka
- D. Ustama gayka




66¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Kontrgayka
- B. Qopqoq
- C. Gayka
- D. Ustama gayka




67¹. Qanday rezbali detal tasvirlangan?

- A. Kontrgayka
- B. Qopqoq
- C. Gayka
- D. Ustama gayka



68¹. Qanday biriktirish detali tasvirlangan?

- A. O'tish muftasi
- B. Burchaklik



C. To'g'ri mufti

D. Troynik


69¹. Qanday biriktirish detali tasvirlangan?

A. O'tish muftasi

B. Burchaklik

C. To'g'ri mufta

D. Troynik




70¹. Qanday biriktirish detali tasvirlangan?

A. O'tish muftasi

B. Burchaklik

C. To'g'ri mufti

D. Troynik




71¹. Qanday biriktirish detali tasvirlangan?

A. O'tish muftasi

B. Burchaklik

C. To'g'ri mufti

D. Troynik




72¹. Chizmada nima tasvirlangan?

A. Shurup uchun rezbali teshik

B. Bolt uyasi

C. Shpilka uyasi

D. Vint uyasi




73². Qanday birikmaning shartli tasviri berilgan?

A. Shpilkali

B. Shurupli

C. Boltli

D. Vintli



74³. Qanday birikmaning shartli tasviri berilgan?

A. Shpilkali

B. Shlitsali

C. Boltli

D. Shtiftli



75³. Qanday birikmaning shartli tasviri berilgan?


A. Shpilkali



- B. Shlitsali
- C. Boltli
- D. Shurupli

76³. Qanday birikmaning shartli tasviri berilgan?

- A. Shpilkali
- B. Shlitsali
- C. Boltli
- D. Shurupli



"10 . Vint chiziqlar, rezbalar va rezbali birikmalar" bo'yicha test

javoblari. 1-B; 2-C; 3-D; 4-A; 5-DE; 6-A; 7-B; 8-C; 9-D; 10- D; 11-C; 12-B; 13-A; 14-C; 15-D; 16-C; 17-A; 18-D; 19-B; 20-C; 21-D; 22-A; 23-C; 24-D; 25-D; 26-A; 27-B; 28-A; 29-C; 30-D; 31-B; 32-C; 33-D; 34-D; 35-B; 36-B; 37-C; 38-D; 39-D; 40-A; 41-C; 42-D; 43-A; 44-C; 45-B; 46-D; 47-D; 48-A; 49- B; 50-C; 51-D; 52-A; 53-B; 54-B; 55-A; 56-B; 57-D; 58-C; 59-D; 60-C; 61-B; 62-D; 63-A; 64-D; 65-A; 66-B; 67-B; 68-A; 69-C; 70-D; 71-B; 72-C; 73-D; 74-C; 75-D; 76A.

11. UZATMALAR

1¹. Turli mashina va mexanizmlarda aylanma harakatlarni bir valdan ikkinchi valga o'tkazishda qanday moslamalardan foydalaniladi?

- A. Tishli uzatmalardan
- B. Shponkali birikmalardan
- C. Shlitsali birikmalardan
- D. Boltli birikmalardan

2¹. Ikki silindrik yoki konussimon sirtlar bir biriga bir oz kuch ta'sirida tegib, aylanma harakat qilsa, qanday uzatish hosil bo'ladi?

- A. Tishli
- B. Friksion
- C. Shlisali
- D. Shponkali

3². Tishli g'ildiraklar aylanma harakatni yetakchi valdan yetaklanuvchi valga uzatadi. Yetakchi valdagi tishli g'ildirak nima deyiladi?

- A. Vtulka
- B. G'ildirak

C. Shesternya

D. Shlisa

4². Yetakchi va yetaklanuvchi vallar bir xil aylanish soni, ya'ni bir xil tezlik bilan aylanadigan bo'lsa, u holda vallarga tishlarning soni qanday bo'lgan tishli g'ildiraklar o'rnatiladi?

A. Turlicha

B. Yetaklanuvchida tishlari soni kamroq

C. Shesternyada tishlari soni ko'proq

D. Ikkalasida ham tishlari soni baravar

5¹. Yetaklanuvchi va yetakchi valga nisbatan sekinroq aylanishi lozim bo'lsa, u vaqtda yetaklanuvchi valga tishlari soni qanday bo'lgan g'ildirak o'rnatiladi?

A. Turlicha

B. Tishlari soni kamroq

C. Ikkalasida ham tishlari soni baravar

D. Tishlari soni ko'proq

6¹. Yetakchi va yetaklanuvchi vallarning geometrik o'qlari o'zaro o'tkir yoki o'tmas, yoki to'g'ri burchak ostida kesishsa, u vaqtda aylanma harakat qanday tishli g'ildiraklar yordamida uzatiladi?

A. Silindrik

B. Konussimon

C. Reykali

D. Chervyakli

7¹. Yetakchi va yetaklanuvchi vallarning geometrik o'qlari o'zaro parallel bo'lsa, u vaqtda aylanma harakat qanday tishli g'ildiraklar yordamida uzatiladi?

A. Silindrik

B. Konussimon

C. Reykali

D. Chervyakli

8³. Yetakchi va yetaklanuvchi vallarning geometrik o'qlari o'zaro ayqash (kesishmaydigan) bo'lsa, u holda aylanma harakat qanday uzatma orqali uzatiladi?

A. Silindrik

- B. Konussimon
- C. Reykali
- D. Chervyakli

9¹. Aylanma harakatni ilgarilama yoki qayta harakatga o'zgartirish lozim bo'lsa, u vaqtda aylanma harakat qanday uzatma yordamida bajariladi?

- A. Silindrik
- B. Konussimon
- C. Reykali
- D. Chervyakli

10¹. Tishli g'ildirakning moduli m qanday tenglama yordamida aniqlanadi?

- A. d (tishli g'ildirakning boshlang'ich aylanasi diametri) $d = mz$
- B. h (tishli g'ildirak tishining balandligi) $h = m$
- C. b (tishli g'ildirak eni (qalinligi) $b = m$
- D. z (tishli g'ildirak tishlarining soni) $m = d/z$

11². Tishli g'ildirakni chizish nimadan boshlanadi?

- A. Boshlang'ich (bo'luvchi) aylana d dan
- B. Tashqi, ya'ni tishlar cho'qqisi aylanasi d_t dan
- C. Ichki ya'ni, yishlar tubi aylanasi d_i dan
- D. Gupchak aylanasi d_{gup} dan

12². Tishli g'ildiraklarning tashqi d_t (tishlar cho'qqilari) aylanasi shartli qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Ingichka tutash to'liqinsimon
- B. Asosiy tutash yo'g'on
- C. Ingichka tutash
- D. Ingichka shtrix-punktir

13². Tishli g'ildiraklarning tishlar tubi aylanasi d_i shartli qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Ingichka tutash to'liqinsimon
- B. Asosiy tutash yo'g'on
- C. Ingichka tutash
- D. Ingichka shtrix-punktir

14². Tishli g'ildiraklarning boshlang'ich (bo'luvchi) aylanasi d shartli qanday chiziqda tasvirlanadi?

- A. Ingichka tutash to'liqsimon
- B. Asosiy tutash yo'g'on
- C. Ingichka tutash
- D. Ingichka shtrix-punktir

15². Silindrik tishli ilashmalarning boshlang'ich aylanalari qanday ko'rinishda chiziladi?

- A. O'zaro kesishuvchi
- B. O'zaro ayqash (kesishmas)
- C. O'zaro og'ma qiya
- D. O'zaro urinma

16². Konussimon tishli ilashmalarning boshlang'ich aylanalari qanday ko'rinishda chiziladi?

- A. O'zaro kesishuvchi
- B. O'zaro ayqash (kesishmas)
- C. O'zaroparallel
- D. O'zaro urinma

17². Chervyakli tishli ilashmalarning boshlang'ich aylanalari qanday ko'rinishda chiziladi?

- A. O'zaro kesishuvchi
- B. O'zaro ayqash (kesishmas)
- C. O'zaro og'ma qiya
- D. O'zaro urinma

18². Vaqti-vaqti bilan bo'ladigan aylanma harakatni bir tomonlama uzatish uchun qanday mexanizmdan foydalaniladi?

- A. Vintli
- B. Prujinali
- C. Xrapovikli
- D. Shponkali

19¹. Parallel vallar orasidagi masofa ancha katta bo'lsa, u holda qanday uzatmalardan foydalaniladi?

- A. Tishli
- B. Friksion
- C. Reykali
- D. Tasmali

- 20². Tishli g'ildirakning boshlang'ich (bo'luvchi) aylanasi diametri d qanday tenglama yordamida aniqlanadi?
- A. $d = \pi \cdot m$
 - B. $d = \pi \cdot d$
 - C. $d = m(z+2)$
 - D. $d = m \cdot z$
- 21³. Tishli g'ildirakning asliga qarab, uning modulini (m) aniqlashda qanday tenglama qo'llaniladi?
- A. $m = d/z$
 - B. $m = d - z$
 - C. $m = d/h$
 - D. $m = h_0 + h_t$
- 22³. Tishli g'ildirakning tishlari tubi aylanasi diametri d_i qanday tenglama yordamida aniqlanadi?
- A. $d_i = d/2$
 - B. $d_i = d - 2,5m$
 - C. $d_i = (6 \dots 8)m$
 - D. $d_i = h_0 + h_t$
- 23². Tishli g'ildirak cho'qqilari, ya'ni tashqi aylanasi diametri d_t qanday tenglama yordamida aniqlanadi?
- A. $d_t = d/2$
 - B. $d_t = d - 2,5m$
 - C. $d_t = d + 2,5m$
 - D. $d_t = h_o + h_i$
- 24². Tishli g'ildirakning chizmasida, uning tishlari soni z qanday tenglama yordamida aniqlanadi?
- A. $z = d/2$
 - B. $z = d \cdot z$
 - C. $z = (6 \dots 8)m$
 - D. $z = d/m$
- 25³. Chervyak boshlang'ich (bo'luvchi) aylanasing diametri d_1 qanday tenglama yordamida aniqlanadi?
- A. $d_1 = d/2$
 - B. $d_1 = m \cdot q$

C. $d_1 = (6...8)m$

D. $d_1 = d/m$

26¹. Yetaklovchi va yetaklanuvchi vallar oralig'i ancha katta bo'lib, ularga yulduzchali g'ildiraklar o'rnatilsa, bu yulduzchali g'ildiraklarni nima harakatga keltirishi mumkin?

A. Tasma

B. Zanjir

C. Chilvir

D. Yana bitta yulduzchali g'ildirak

27³. Valdagi barabanni teskari yo'nalishda aylanib ketmasligini ta'minlash maqsadida qanday mexanizmdan foydalaniladi?

A. Vintli

B. Prujinali

C. Shponkali

D. Xrapovikli

28³. Mexanizmdagi maxsus profilli tishli g'ildirakni teskari aylanishdan saqlaydigan moslama (detal) nima bo'lishi mumkin?

A. Vint

B. Prujina

C. Tishlagich (Sobachka)

D. Shponka

29³. Zanjirli uzatmalarning shartli tasvirida zanjir qanday chiziqda tasvirlanadi?

A. Ingichka shtrix-punktir

B. Ingichka ikki nuqtali shtrix-punktir

C. Ingichka tutash

D. Shtrix


30³. Tishli g'ildirakning ish chizmalarida tish profilini ko'rsatish maqsadida qanday qirqimdan foydalaniladi?

A. Gorizontall B. Profil C. Frontal D. Murakkab

31². Qanday uzatma tasvirlangan?

A. Reykali uzatma


B. Chervyakli uzatma



- C. Xrapovikli uzatma
- D. Konus tishli uzatma


32³. Qanday uzatmaning shartli tasviri ko'rsatilgan?

- A. Reykali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Xrapovikli uzatma
- D. Konus tishli uzatma




33³. Qanday uzatmaning shartli tasviri ko'rsatilgan?

- A. Reykali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Xrapovikli uzatma
- D. Konus tishli uzatma




34³. Qanday uzatmaning shartli tasviri ko'rsatilgan?

- A. Reykali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Xrapovikli uzatma
- D. Konus tishli uzatma




35¹. Qanday uzatma tasvirlangan?

- A. Reykali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Konus tishli uzatma
- D. Zanjirli uzatma




36³. Qanday uzatmaning shartli tasviri berilgan?

- A. Reykali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Xrapovikli uzatma
- D. Zanjirli uzatma



37¹. Chizmada nima tasvirlangan?



- A. Chervyak
- B. Reyka
- C. G'ildirak
- D. Shesternya


38¹. Chizmada nima tasvirlangan?

- A. Chrvyak
- B. Reyka
- C. G'ildirak
- D. Shesternya




39¹. Chizmada nima tasvirlangan?

- A. Shesternya
- B. Reyka
- C. G'ildirak
- D. Chrvyak




40¹. Qanday uzatmaning shartli tasviri berilgan?

- A. Tasmali uzatma
- B. Silindrik tishli uzatma
- C. Konus tishli uzatma
- D. Zanjirli uzatma



41¹. Qanday uzatma tasvirlangan?

- A. Reykali uzatma
- B. Tasmali uzatma
- C. Friksion
- D. Zanjirli uzatma



“11. Tishli uzatmalar” bo'yicha test javoblari. 1-A; 2-B; 3-C; 4-D; 5-D; 6-B; 7-A; 8-D; 9-C; 10-D; 11-A; 12-B; 13-C; 14-D; 15-D; 16-D; 17-D; 18-C; 19-D; 20-D; 21-A; 22-B; 23-C; 24-D; 25-B; 26-B; 27-D; 28-C; 29-A; 30-C; 31-B; 32-B; 33-A; 34-B; 35-C; 36-D; 37-A; 38-B; 39-D; 40-A; 41-C.

12. SHTIFTLI BIRIKMALAR

- 1¹. Ishlov berilgan silindrik va konussimon sterjen nima deyiladi?
 - A. Parchinmix
 - B. Shtift
 - C. Shplint
 - D. Shponka
- 2¹. Biriktiriladigan detallarda birgalikda teshik ochilib, unga ularni biriktiradigan detal bosim ostida kiritilsa, qanday birikma hosil bo'lishi mumkin?
 - A. Shpilkali
 - B. Parchinmixli
 - C. Shtiftli
 - D. Shplintli
- 3². Shtiftning birikmadagi vazifasi nimada?
 - A. Detallarni bir-biriga markazlashtirish
 - B. Detallarning aylanma harakatini ta'minlash
 - C. Detallarni ajratish oson bo'lishligini ta'minlash
 - D. Detallarni o'zaro holatlarini mustahkamlash
- 4². Shtiftning birikmadagi vazifasi nimadan iborat?
 - A. Birikmaning ortiqcha yuklanishini ogohlantirish
 - B. Detallarning aylanma harakatini ta'minlash
 - C. Detallarni ajratish oson bo'lishliginini ta'minlash
 - D. Detllarni bir-biriga markazlashtirish
- 5². Birikmaning sifatini yo'qotmay detallarni ko'p marta birikishini ta'minlashda qanday shtift afzal?
 - A. Silindrik
 - B. Prizmatik
 - C. Segmentli
 - D. Konussimon
- 6³. Konussimon shtiftning konusligi K qanchaga teng?
 - A. $K=l:100$
 - B. $K=l:75$
 - C. $K=l:50$
 - D. $K=l:25$

- 7³. Konussimon shtift o'tkaziladigan joining uzunligiga qarab, shtiftning kichik diametri d_1 qanday aniqlanadi?
- A. $d_1 = d + L/100$
 - B. $d_1 = d + L/75$
 - C. $d_1 = d + L/50$
 - D. $d_1 = d + L/25$
- 8³. Shtift teshikka qanday kiritiladi?
- A. Erkin
 - B. Tirqishli
 - C. Tirqishsiz
 - D. Bosim ostida
- 9¹. Shtiftlarda faskalar nima uchun ochiladi?
- A. Shtiftni yengillatish uchun
 - B. Teshikka oson kirishi uchun
 - C. Teshikka silliq kirishi uchun
